2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 20 (1346), 2025-yil 29-yanvar, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

IJTIMOIY YORDAM MANZILLILIGINI OSHIRISHNING YANGI TIZIMI JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-yanvar kuni ijtimoiy yordamlarning manzilliligini oshirish, nogironligi bo‘lganlarni parvarishlashning yangi tizimiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Bu haqda 13-dekabrda bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida topshiriq berilgan edi. Shunga muvofiq, jahon tajribasi va hayot talabini inobatga olgan holda, qator takliflar ishlab chiqildi.

Jumladan, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” orqali ijtimoiy yordamlar “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kirgan oilalarga ko‘rsatilishi belgilanmoqda. Bunda mablag‘larni tuman va shaharlardagi aholi, nogiron shaxslar va kambag‘al oilalar soniga mutanosib ravishda taqsimlash tartibi joriy etilmoqda.

Oilaning kambag‘al deb e’tirof etilishi uning a’zolaridan qo‘shimcha ariza va hujjatlarni talab etmagan holda ijtimoiy yordamlar ko‘rsatilishiga asos bo‘ladi.

Shu bilan birga, samarasiz va talab yuqori bo‘lmagan ijtimoiy yordamlar maqbullashtirilib, 28 turdagi ijtimoiy yordamning yagona ro‘yxati tasdiqlanadi. Ijtimoiy daftarlar hisobidan ajratiladigan davolanish va jarrohlik amaliyoti xarajatlarini Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi orqali moliyalashtirish tartibi joriy etiladi.

Tuman (shahar) hokimliklari huzurida yuridik shaxs bo‘lmagan “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armalari tashkil etiladi. Uning mablag‘lari hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-amaliy va infratuzilmaviy muammolarini bartaraf etish, sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq qilish va sportni rivojlantirish, ekologiya va atrof-muhitni asrash tadbirlariga sarflanadi.

Davlatimiz rahbari nogironligi bo‘lgan bolalarga alohida mehr-e’tibor ko‘rsatish xayrli ekanini aytgan edi.

Shu bois, 3-18 yoshdagi nogironligi bo‘lgan bolalar uchun davlat-xususiy sheriklik asosida kunduzgi parvarish xizmatini yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda. Unga bolalar ota-onalari bilan tuzilgan ijtimoiy shartnoma hamda Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida qabul qilinadi.

Joriy yil yakuniga qadar bu xizmatlar bilan 2 mingga yaqin og‘ir nogironligi bo‘lgan bolalarni qamrab olish rejalashtirilmoqda. Bu ularning onalari uchun ishlash va ta’lim olish kabi imkoniyatlar yaratib, oila farovonligiga xizmat qiladi.

“Bolalar salomatligi” axborot tizimi ishga tushirilib, har bir farzandga qo‘yilgan tashxis tahlil qilib boriladi. Ularga tibbiy, reabilitatsiya, ta’lim, ijtimoiy xizmatlar kompleks ravishda ko‘rsatiladi.

Bunday muassasalarga har bir bola uchun subsidiya va xaridlarga imtiyozli kreditlar ajratiladi. Ota-onalarning kunduzgi parvarish xizmatidan foydalangani uchun oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlaridan soliq olinmaydi.

Taqdimotda oilalarni kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashish tadbirlari haqida ham axborot berildi.

Bu jarayon “yetti imkoniyat va mas’uliyat” tamoyili asosida tashkil qilingan. Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, daromadi va mulkni baholaydigan “Kambag‘al oilalar reyestri” axborot tizimi ishga tushirilgan.

Shu asosida 48 ming fuqaro ishga joylashtirildi, 10 mingdan ziyodi kasbga o‘qitildi, 14 ming nafariga kredit va subsidiyalar ajratildi. 140 ming oilaga shifokorlar biriktirildi, 38 ming fuqaroga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatildi. 32 ming bola bog‘chaga joylashtirilib, qariyb 7 ming yosh kirish imtihoniga tayyorlanish uchun universitetlarga biriktirildi.

Davlatimiz rahbari takliflarni ma’qullab, kambag‘allik reyestrini oilalarning mehnatga layoqatiga qarab tabaqalashtirish, mehnatga layoqatli bo‘lmaganlarni davlat ijtimoiy himoyasiga olish, ularni ijtimoiylashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘zA

AHOLINI BARQAROR ENERGETIKA BILAN TA’MINLASHDA RESURS TEJAMKOR IQTISODIYOT MODELIGA O‘TILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev elektr energetikasini 2025-2035-yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Oxirgi sakkiz yilda elektr ishlab chiqarish 38 foiz oshib, 81,5 milliard kilovatt-soatga yetdi. Xususiy sektorga keng yo‘l ochilgani tufayli 11,2 gigavattli qo‘shimcha quvvat yaratildi. Natijada bu sektorning generatsiyadagi ulushi 24 foizga, “yashil” energiya hissasi esa 16 foizga yetdi.

Shu davrda aholi daromadi 1,6 baravar o‘sgani, yangi turdagi maishiy texnikalardan foydalanilayotgani sababli xonadonlarda elektr iste’moli 21 milliard kilovatt-soatdan oshdi. Bu 2016-yilgidan 2 baravar ko‘p.

2030-yilga borib, mamlakatimiz aholisi 41 millionga yetishi, iqtisodiyotimiz esa 1,5 karra o‘sishi kutilyapti. Shunga mutanosib ravishda sanoatda 45 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish, xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, yirik Ma’lumotlar markazlarini ishga tushirish ko‘zda tutilgan.

Buning uchun, avvalo, barqaror elektr ta’minoti zarur. Hisob-kitobga ko‘ra, 2030-yilda 117 milliard kilovatt-soat, 2035-yilda esa 135 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi talab etiladi. Ya’ni hozirgidan 1,7 baravar ko‘p.

Yig‘ilishda energetika vaziri shu maqsadga qaratilgan uzoq muddatli dasturni taqdimot qildi.

Qayd etilganidek, yangi elektr stansiyalari va energiya saqlash quvvatlari barpo etiladi. Ularni tizimga ulash uchun 7 ming kilometr magistral tarmoq qurilib, raqamlashtirilgan boshqaruv joriy qilinadi. Bu orqali hududlarda energiya balansi ta’minlanadi. Bir viloyatda elektr yetishmovchiligi bo‘lsa, boshqa joyda qo‘shimcha quvvatlar ishga tushiriladi. Bu ishlar uchun kelgusi besh yilda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”ga 4 milliard dollarlik investitsiya kiritish talab etiladi.

Yana bir muhim masala — elektr energiyasining tannarxini pasaytirish. Buning omili muqobil manbalarni ko‘paytirishdir. Xorijiy ekspertlar ham O‘zbekiston sharoitida “yashil” energiya imkoniyatlari ko‘pligini aytyapti.

Shundan kelib chiqib, 2030-yilga borib, jami generatsiyada “yashil” energiya ulushini 50 foizdan oshirish ko‘zda tutilgan. Jumladan, 3 mingta mikro GESda 164 megavatt, quyosh va shamol qurilmalari hisobiga 750 megavatt quvvatlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Kuni kecha davlatimiz rahbari resurs tejamkor iqtisodiyot modeliga o‘tish vaqti kelganini ta’kidladi.

Xususan, sanoatda energiya samaradorlik orqali qo‘shimcha 27 foiz yalpi ichki mahsulot yaratish imkoniyati bor. Hozir kimyo va metallurgiya bo‘yicha ayrim mahalliy korxonalarda energiya sarfi dunyodagi o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan 2 karra, sement ishlab chiqarishda esa 1,2 barobar yuqori.

Shu bois, har bir tarmoq kesimida energiyani 10-15 foiz iqtisod qilish, 2030-yilda elektr energiyasi yo‘qotishlarini hozirgi 14 foizdan 8-9 foizgacha tushirish vazifa qilib olinmoqda.

Xorijiy investorlar bilan yana 26 milliard dollarlik 24 gigavattli loyihalar bo‘yicha ishlar boshlangan. Ularga ko‘p miqdorda uskuna va qurilish materiallari ishlatiladi. Bu yurtimiz korxonalari uchun katta imkoniyat ekani, loyihalarda mahalliylashtirish va kooperatsiyani rivojlantirish zarurligi ta’kidlandi.

Iste’molchilarga barqaror va uzluksiz elektr yetkazib berish, sohada kadrlar tayyorlashni rivojlantirish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Mutasaddilarga bularning hammasini inobatga olib, elektr energetikasi sohasini 2035-yilgacha rivojlantirish dasturini tayyorlash topshirildi.

O‘zA

TABIAT BEBAHO BOYLIKKINA EMAS

KELAJAGIMIZ, TAQDIRIMIZ HAMDIR

Tabiatni asrash bilan bog‘liq bunday hikmat bor: “Qushlar sayrashini istasangiz, qafas sotib olmang, ko‘chat eking”. Million yillar davomida odamlarsiz yashagan tabiat bundan keyin ham yashay oladi, insonlar esa to‘laqonli biosfera, ya’ni biologik tizim rivojlanishi uchun to‘liq sharoitsiz mavjud bo‘lolmasligi tayin. Biroq insoniyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik yil sayin oqsab borayotganini hech kim inkor etolmaydi.

Genofondning jadallik bilan yomonlashib ketayotgani, minglab gektar o‘rmonlar ayovsiz kesilishi, atmosfera va suv manbalari ifloslanishi, tuproq eroziyasi, ozon qatlami buzilishi kabi holatlar dunyo ekologiyasida eng katta muammolarga aylangan.

Davomi 3-betda

Prezident tashabbuslari amalda

G‘IJDUVON TAJRIBASI:

ISHBILARMONLIK AHOLI TURMUSHIGA FAROVONLIK OLIB KIRDI

Bugun dehqonchilikdan tortib ishlab chiqarishgacha, sanoat zanjirini yaratishdan to yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishgacha — barida xususiy tadbirkorlar, kichik va o‘rta biznes vakillarini uchratishimiz odatiy holga aylangan. Hozir ular xususida hatto Prezidentimiz turli yig‘ilishlarda gapirishini go‘yoki azaldan shunday bo‘lib kelgandek jo‘n qabul qilamiz.

Soha vakillariga yaratilayotgan qator yengilliklar, erkinliklar, olib tashlanayotgan sun’iy cheklovlar yetti-sakkiz yil oldin amalga oshirish nihoyatda mushkul bo‘lgan ish ekani yodimizdan chiqqani, albatta, bir tarafdan quvonarli, biroq “O‘tmish xatolarini unutmagan holda, kelajak uchun poydevor quring”, degan naqlni ham unutmasligimiz lozim.

Sakkiz yil oldin qabul qilingan qarorlar va islohotlar ayni shu og‘riqli nuqtadan boshlangani bejiz emas. Chunki ilgari bir tadbirkor ish boshlasa, faoliyatiga aralashib, huda-behuda tekshiruv bilan to‘siq qo‘yadiganlardan ko‘pi bo‘lmasdi. Mahsulot ishlab chiqarish, bozor topish, yangi ish o‘rni yaratish — barchasi katta mashaqqat, bu yoqda tadbirkorga yordam o‘rniga uning ishiga xalal berishlar, shubhasiz, rivojlanish yo‘lidagi to‘siq edi.

Shu bois, 2016-yildan boshlab mamlakatimizda tadbirkorlarga munosabat tubdan o‘zgardi. Prezidentimizning 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni esa ushbu sohada yangi bosqich, yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Zero, hujjat bilan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari, shuningdek, ularni jinoyat ishlari doirasida muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi.

Davomi 4-, 5-betda

MAHALLADA XAVFSIZ MUHIT YARATISH

MANZILLI CHORA-TADBIRLAR VA ILMIY YONDASHUVLAR ORQALI OSOYISHTALIKKA ERISHAMIZ

Sharh

Mirzayusup RUSTAMBOYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor

Davlatchilik tariximizda jamoaviy hayot tarzi va yaqin ijtimoiy munosabatlarning noyob instituti hisoblangan mahalla kishilarning ittifoq va ahil bo‘lib yashaydigan maskani, urf-odat va an’analar o‘chog‘i sifatida qadrlanadi.
Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy mahalla misolida odamlar o‘rtasida birodarlik, mehr-oqibat, ustoz-shogirdlik kabi insoniy fazilatlar kamol topishiga urg‘u berib, hamjihatlik va birdamlik an’analari aynan mahallada shakllanishi, u yerda yashovchi aholi o‘zaro qon-qarindosh, qo‘ni-qo‘shni bo‘lgani bois, hech qachon yolg‘izlanib qolmasligini uqtiradi.

Keyingi yillarda mahalla tizimi tubdan isloh qilinib, “Obod mahalla”, “Obod qishloq”, “Xavfsiz mahalla”, “Mening mahallam”, “Jinoyatdan xoli mahalla”, “Xavfsiz xonadon”, “Xavfsiz hovli” kabi tushuncha va amaliy loyihalar har bir xonadonga yetib bordi, bu borada tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Birgina 2024-yilda shahar va tumanlarda “Mahalla budjeti” tizimi ishlay boshlagani, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari uchun davlat byudjetidan katta mablag‘ ajratilgani, har 5 ta mahallaga bitta mahalla huquq-tartibot maskani namunaviy loyiha asosida tashkil etilgani sohadagi muhim islohotlardan biridir.

Shu bilan birga, mahallalarni turli yot unsurlar, ayniqsa, huquqbuzarliklardan xoli hududga aylantirish eng ustuvor vazifa sifatida qolmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlik sodir etilishiga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni profilaktika choralar tizimi orqali hal qilish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasidagi samarali chora-tadbirlarning navbatdagi muhim huquqiy asosi bo‘ladi.

Mazkur qaror asosida mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator yo‘l xaritalari hamda 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Endi jinoyat sodir etilgan mahallalarda ilmiy tashkilot va ta’lim muassasalari tomonidan ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganishlar o‘tkaziladi. Barcha tuman (shahar) sektor rahbarlariga, Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati boshliqlariga va ichki ishlar organlari boshliqlari o‘rinbosarlariga 2025-yilda kriminogen vaziyat og‘ir mahallalar nomma-nom biriktiriladi.

Boisi, bugungi tahlikali va xavf-xatarlar ortib borayotgan bir sharoitda mahallalarda xavfsiz muhit yaratishning tashkiliy profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etilayotgan qonunbuzilishlarning tub ildizlariga yetib borish va barvaqt oldini olish zarurati tobora ortib bormoqda.

Sohibqiron Amir Temur davrida ham shahar, tuman va mahallalarning xavfsiz bo‘lishi orqali mamlakatda xavfsiz muhit ta’minlanib, xalq tinchligi va osoyishtaligiga erishilgan. Jumladan, Amir Temur bobomiz “Shaharlarda va shahar mahallalarida maxsus odam qo‘ydirdim, ular xalqning va askarlarning xavfsizligi ustida ish olib borardi. Men ekilgan maydonlar va fuqarolarning xavfsizligi uchun maxsus soqchilik joriy qildirdim”, deydi va bu orqali mamlakatda tinchlik va xavfsizlik ta’minlanganini aytadi.

Mahalla tizimi qanchalik takomillashsa, ko‘proq shart-sharoit yaratilsa, imkoniyat va imtiyozlar tizimi tartibga solinsa, bu yerda yashaydigan aholining farovonligi ortadi, shukronalik hissi bir necha karra ko‘payadi. Shu jihatdan ham yurtimizda aynan mahalla tizimiga e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Shundan kelib chiqqan holda, mahallalarga kompleks yondashuv amalga oshirilishi muhim. Ayniqsa, shu yilning o‘zida har bir mahalla bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilandi. Xususan, 2025-yilda jami 5 million 200 ming kishini, jumladan, banklar tomonidan 3 milliondan ziyod fuqaroni ish bilan band qilish rejalashtirilgan. Shu maqsadda 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirish bo‘yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bunda tomonlarning aniq huquq va majburiyatlari ko‘rsatib o‘tildi.

Ayniqsa, aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan “mahalla loyihasi” dasturi doirasida 1 milliard dollar ajratilayotgani, “mahalla bankirlari” tajribasi yaratilib, har bir mahallada ular bilan birga ishlaydigan “yordamchi-agentlar” tanlab olinayotgani samarali amaliy natijalarga zamin yaratadi.

Shuningdek, “online-mahalla.uz”, “bank-kredit.uz” va “soliq.uz” axborot tizimlari integratsiya qilinib, mas’ullarga yuklatilgan vazifalar ijrosi kunlik monitoring qilib borilishi esa ijro intizomini nazorat qilishga ko‘mak beradi.

Prezident qarorining amaliy ahamiyati shundaki, bevosita mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish va sohadagi ishlarni 2025-yilda sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda qator tizimli chora-tadbirlar ko‘rilib, bir necha muhim yo‘nalishda manzilli ishlar bajariladi.

> **Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning oldini olish har bir fuqaroning mas’uliyatni anglashi va birgalikda ishlashini talab etadigan murakkab jarayondir. Mahallada xavfsizlikni ta’minlash uchun samarali profilaktika ishlari, yoshlar bilan ishlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim omillardan.**

Birinchidan, mas’ul idora va muassasalar uchun 2025-yilda har bir mahallada huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish ustuvor vazifa sifatida belgilanib, ishlash mexanizmlari joriy etildi.

Bunda 2024-yilda jinoyat sodir etilgan mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarni belgilagan holda “mahalla — tuman — viloyat” darajasidagi ijrosi uchun mas’ul rahbarlarni biriktirish, ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida huquqbuzarliklarning asl omillarini aniqlash, mahallada ishsizlikning oldini olish va bu borada “mahalla yettiligi” mas’uliyatini, aholining huquqiy ongi va ijtimoiy faolligini yanada oshirish choralari ko‘riladi. Shuningdek, mahallada xavfsiz muhit yaratishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish kabi maqsadli tadbirlar amalga oshiriladi.

Muhimi, har bir mas’ul rahbarning mahalladagi huquqbuzarliklar oldini olishdagi shaxsiy mas’uliyati hamda sohaviy javobgarligini yanada oshirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada muntazam monitoring yuritiladi.

Ikkinchidan, jinoyat sodir etilgan mahallalarda huquq-tartibot idoralarining ilmiy tashkilot va ta’lim muassasalari tomonidan ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganishlarni amalga oshirishi, alohida hududlar, mahallalar kesimida metodikalarni yaratishi va amaliyotga tatbiq etishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli bo‘lganlarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko‘rsatish, ya’ni ijtimoiy profilaktika bilan bog‘liq faoliyat yanada takomillashtirilmoqda. Buni samarali amalga oshirish uchun ma’muriy huquqbuzarlik “E-ma’muriy ish”da ro‘yxatdan o‘tkazilganda huquqbuzar (jabrlanuvchi)larga ijtimoiy profilaktikani avtomatik amalga oshirish bo‘yicha xulosa ijroga qaratilishi, har bir xulosa ijrosi ustidan kunlik nazorat o‘rnatilishi, “mahalla yettiligi” va ko‘maklashuvchilar faoliyati ijtimoiy profilaktika natijalari asosida baholanishi yo‘lga qo‘yiladi. O‘z navbatida, bu xodimlarning shaxsiy mas’uliyati hamda manfaatdorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, joylarga chiqqan holda asl holatni o‘rganish, har bir mahallada alohida yondashuvlar asosida chora-tadbirlarni amalga oshirish ham muhim tashabbusdir. Bunda mahallalardagi kriminogen vaziyatga ta’sir qilayotgan asosiy omillarni nazarda tutgan holda huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish bo‘yicha manzilli usullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, buning natijalari yuzasidan biriktirilgan ilmiy tashkilot va muassasalardan sohaga mas’ul idoralar bilan teng ravishda so‘rov qilish choralari ko‘riladi.

Beshinchidan, hududiy yo‘l xaritalarini ishlab chiqish va vazifalar ijrosi yuzasidan har bir tuman hamda shaharning to‘rtta sektorida kriminogen vaziyat og‘ir mahallalarda kamida ikkitadan “namunali xavfsiz ko‘cha” va beshtadan “namunali xavfsiz yo‘lak” tashkil etiladi. Ahamiyatli jihati, “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz yo‘lak”larni tashkil qilgan, kriminogen vaziyati barqarorlashgan “mahalla yettiligi” va sektor rahbarlari hokimliklar tomonidan mahalliy byudjet mablag‘i hisobidan qo‘shimcha moddiy rag‘batlantiriladi.

Mahalladagi huquqbuzarliklarning oldini olishda har bir fuqaro, ayniqsa, mas’ul idora rahbarlari va xodimlari o‘z ish uslublarini tubdan o‘zgartirgan holda sifatli ish ko‘rsatkichlariga erishishi, shaxsiy mas’uliyati ustuvor ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu orqali tegishli hududlarda huquqbuzarlik ko‘rsatkichlarini keskin kamaytirish, aholi tinchligi va osoyishtaligi barqarorligiga erishish mumkin.

> **Xavfsiz muhit yaratish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish har bir mahalla uchun muhim va oldindan rejalashtirilgan ishlarni talab etadi. Buning uchun faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki barcha jamoa a’zolari ham mas’ul bo‘lishi zarur. Zero, xavfsiz muhit yaratish aholi ijtimoiy farovonligini ta’minlashning muhim shartidir. Mahallada xavfsizlikka qaratilgan choralar insonning o‘zini erkin his qilishini ta’minlash bilan birga huquqbuzarliklarning oldini olishga ham yordam beradi.**

Bu borada aholining huquqiy ongi va madaniyatini, qonunga itoatkorlik hissini yanada yuksaltirish, “jinoyatga jazo muqarrar” tamoyilini chuqur singdirish, huquqiy mezon va mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirish, intizomni mustahkamlash zarur ahamiyatga ega. Bu orqali mamlakat tinchligi va barqarorligiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Mahalla tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida yanada rivojlantirish, jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mahalla mablag‘ini aholining ovoziga ko‘ra infratuzilma loyihalariga yo‘naltirish amaliyotini joriy etish belgilangan. Mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdorini kamida 3 barobar ko‘paytirish, aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag‘ni 24 trillion so‘mga yetkazish orqali eng quyi tizimda amaliy natijalarga erishiladi.

Shu bilan birga, 100 dan ortiq davlat xizmatini “bir qadam”da ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni 100 foiz raqamlashtirib, har bir mahallada “elektron xizmat nuqtalari”ni ishga tushirish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish aholi ovoragarchiligining oldini oladi va qulay xizmatlar yo‘lga qo‘yiladi. Eng muhimi, bu orqali hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o‘zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratishga erishiladi.

Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning oldini olish har bir fuqaroning mas’uliyatni anglashi va birgalikda ishlashini talab etadigan murakkab jarayondir. Mahallada xavfsizlikni ta’minlash uchun samarali profilaktika ishlari, yoshlar bilan ishlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim omillardan.

Toshkent davlat yuridik universitetida taniqli davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist Ubaydulla Mingboyev tavalludining 90 yilligi munosabati bilan ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

UBAYDULLA MINGBOYEVNING JAMIYAT VA DAVLAT OLDIDAGI ULKAN XIZMATLARI E’TIROF ETILDI

U.Mingboyev mamlakatimizning sud-huquq idoralarida qariyb 60-yildan buyon faol mehnat qilib kelmoqda. Jumladan, qariyb 12 yil davomi (1991-2002-yillar)da Oliy sud raisi, 2018-2020-yillarda Sudyalar oliy kengashi raisi lavozimida xizmat qilgan. 2009-yildan buyon O‘zbekiston sud tizimi faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamoatchilik markazi raisi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Shu kungacha u “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist” faxriy unvoni, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni, “Jasorat” medali bilan taqdirlangan edi.

Kuni kecha esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Ubaydulla Mingboyevga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” unvoni berildi.

Prezident maslahatchisi G‘ofurjon Mirzayev davlatimiz rahbarining tabrigi va farmonini o‘qib eshittirdi.

Mazkur mukofot yubilyarga jamiyatda qonuniylikni ta’minlash, adolatni qaror toptirish orqali inson qadr-qimmatini ulug‘lash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qo‘shgan munosib hissasi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi ibratli faoliyati, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faol ishtiroki uchun berilganini qayd etdi.

Aytib o‘tish kerakki, U.Mingboyev mustaqil O‘zbekiston Oliy sudining birinchi raisi bo‘lgan, Konstitutsiyamiz loyihasini tuzishda ishtirok etgan. O‘tgan asrning 30-35-yillarida qatag‘on qilinganlarning, 83-86-yillarda “O‘zbeklar ishi” deb nohaq qamalganlarning ko‘plariga adolatli sud qarorlarini chiqargan.

So‘zga chiqqanlar yubilyarning jamiyat va davlat oldidagi shu kabi ulkan xizmatlarini alohida e’tirof etdi.

Umidjon QURBONOV,
O‘zA muxbiri

Dolzarb mavzu

Oxirgi paytlarda yovvoyi hayvonlarni qonunga zid ravishda uyda saqlash natijasida ular tasodifan ko‘chaga chiqib ketib, aholi sog‘lig‘i va hayotiga xavf solishi bilan bog‘liq voqealar kuzatilmoqda. Misol uchun, Toshkent tumanidagi uylarning birida noqonuniy boqilayotgan sher kutilmaganda onasi bilan do‘konga chiqqan bolaga hujum qilgani ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo‘lgan edi.

QONUNGA ZID RAVISHDA YO‘L TUTGANLAR JAVOBGARLIKKA TORTILADI

Yana bir holatda tegishli ruxsatnomasiz xonadonlardan birida saqlab kelingan ilonlar bexosdan ko‘chaga qochib chiqib ketgan. Tumandagi tegishli tashkilotlar mutaxassislari hamda mahalla faollaridan iborat ishchi guruh tuzilib, yaqin atrofdagi xonadonlarda dorilash ishlari olib borilgan, uy hayvonlarini vaqtincha tutqunlikda saqlab turish bo‘yicha aholiga tushuntirish berilgan.

Qolaversa, ayrim yurtdoshlarimiz zaharli hayvonlarni xonadonida saqlash bilan cheklanmay, jamoat joylarida olib yurish, ular bilan fotosuratlarga tushish, oilaviy hamda ommaviy marosimlarga o‘zlari bilan olib kelish holatlari kuzatilyapti. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan shunday videolardan birida ota murg‘ak go‘dagiga ilonni tutqazib suratga olib, uni tarmoqqa joylaydi. Yana bir videoda esa bir inson ilonni tiriklay yeganini iddao qiladi.

Eng ayanchlisi, bog‘cha va maktablarda zaharli ilon ishtirokida sirk tomoshalari ko‘rsatilgani bo‘ldi. Bu tadbirlarda ko‘plab bolalar qatnashgan. Bunday holatlar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida jiddiy tashvish uyg‘otib, keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. Chunki bunday holatlar inson hayoti va sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin.

— Qonunchiligimizda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishda ayrim turdagi yovvoyi hayvonlarni jismoniy shaxslar tomonidan saqlashga oid taqiq bor, — deydi Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi Anvar To‘ychiyev. — Shu bilan birga, yarim erkin sharoitlarda, sun’iy yaratilgan yashash muhiti yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlar ro‘yxati tasdiqlangan. Ammo mazkur ro‘yxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlarning fuqarolar tomonidan noqonuniy saqlab kelinishi uchun qonunchilik hujjatlarida javobgarlik belgilanmagani natijasida yovvoyi hayvonlarni saqlash bilan bog‘liq qoidalarni qo‘pol tarzda buzish holatlari uchrayapti. Jumladan, 2022-2024-yillarda fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i uchun jiddiy xavf soluvchi 6 ta holat qayd etilgan. Bu esa aholining hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishda qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishni talab etdi.

2025-yil 16-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonunda bu boradagi muhim tartib-tamoyillar o‘z aksini topdi. Xususan, endilikda jismoniy shaxslar tomonidan saqlash taqiqlangan yovvoyi hayvonlarni saqlaganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi. Bunda jismoniy shaxslar yarim erkin sharoitlarda, sun’iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarni saqlagani uchun aniqlangan hayvonlar musodara qilinib, qonunbuzarlarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik odamlarning sog‘lig‘iga, mol-mulkiga zarar yetishiga olib kelsa, bunday holatda jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa, hayvonlarni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solinishi nazarda tutildi.

Keyingi paytlarda hayvonlarni saqlash qoidalarini buzish, egasiz hayvonlarni o‘z vaqtida tuttirish choralarini ko‘rmaslik bilan bog‘liq salbiy holatlar ham ortib bormoqda. Misol uchun, it va mushuk boqish qoidalarini buzish bo‘yicha 2023-yilda 27 mingdan ziyod, 2024-yilning 9 oyi davomida qariyb 12 mingta holatda fuqarolar ma’muriy javobgarlikka tortilgan. Natijada bir qancha fuqarolarning sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu sohaga mas’ul shaxslarning mas’uliyatini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu munosabat bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 110-moddasi nomiga aniqlik kiritilib, “Hayvonlarni saqlash qoidalarini buzish” deya qayta nomlandi.

Shuningdek, hayvonlarni saqlash qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, shaharlar hamda boshqa aholi punktlarida hayvonlarni saqlash qoidalarini buzish, mansabdor shaxslar tomonidan egasiz hayvonlarni tuttirish hamda saqlash choralarini ko‘rmaslik fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga asos bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik odamlarning sog‘lig‘i, mol-mulkiga zarar yetishiga olib kelsa, basharti jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmasa, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solinishi belgilandi.

Javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli modda ham kiritilib, bunday huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish vakolati jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarga berilmoqda.

Qonunchiligimizga kiritilgan bu o‘zgarishlar, avvalo, aholining hayoti va sog‘lig‘ini asrash, xavfsizligini ta’minlash, shu bilan birga, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ekologik muvozanatni barqaror saqlashda samara beradi.

Qonun rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirdi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

TABIAT BEBAHO BOYLIKKINA EMAS

KELAJAGIMIZ, TAQDIRIMIZ HAMDIR

Rustam BOYTO‘RA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ularning holatini aks ettiradigan raqam va dalillar jamoatchilikni yil sayin xavotirga solmoqda. Zero, bu muammolarning yuzaga kelishida asosiy sababchi inson omili bo‘layotgani va endilikda birgalikda kurashmasdan iloji yo‘qligini dunyo ahli yil sayin chuqurroq his etib bormoqda. Jumladan, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015-yili Parij bitimi qabul qilindi. Unda rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar ham chiqindi va tashlanmalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilab qo‘yildi. 2017-yil O‘zbekiston ham mazkur bitimni imzoladi. Shuningdek, 2024-yil 30-noyabrda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Ayni paytda deyarli barcha mamlakatlarning atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qator qonun va qoidalari amalda.

Ha, insoniyat tabiat bilan uyg‘unlikda hayot kechirish uchun harakat qilayotganiga qaramay, uni asrab qolish borasida nomutanosiblik yil sayin farqlanib boryapti. Nega?

Vatanparvarlik faqat siyosiy tamoyildan iboratmi?

Albatta, bu borada qonunlar juda zarur va muhim. Shu bilan birga, har bir insonning tabiatga munosabati, ilmiy tilda aytganda, avvalo, ekologik madaniyati, bilimi, qarashlari mustahkam shakllansa, natija yanada samarali bo‘lishi shubhasiz.

O‘tgan yili 20-noyabr kuni davlatimiz rahbari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan ustuvor vazifalarni aytganidan so‘ng 2025-yilni Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb nomlashni tavsiya qildi. Shu bilan birga, o‘z nutqlaridan birida “Yashil makon” umummilliy dasturini amalga oshirishda shu vaqtgacha yo‘l qo‘yilgan asosiy kamchiliklar haqida gapirib, “Yashil makon” umummilliy loyihasi boshlanganidagi kamchiliklarni sanab o‘tdi. Endi ekishdan oldin parvarishni, suvni o‘ylashimiz, har bir daraxtning egasi bo‘lishi, odamlarimiz uchun xonadon, ko‘cha, mahallasi, shahrida, viloyatda, maktablarda, oliygohlarda, korxonalarda atrof-muhitni asrash bo‘yicha muhit yaratishimiz kerakligini ta’kidladi.

Ha, aynan muhit. Ya’ni odamlarning o‘zlari yashayotgan, ilm olayotgan dargohlari, ishlayotgan, dam oladigan joylaridagi tabiat bilan bog‘liq ijobiy holat, ko‘rinishni yuzaga keltirish talab etilmoqda. Qolaversa, ularning tabiatni asrashga hissa qo‘shishi, mas’uliyatli munosabati bilan bog‘liq muhit yaratish zarur ekaniga urg‘u berildi. Bu har bir inson ekologiyani asrash hayotiy masala, tom ma’noda vatanni asrash bilan barobar ekanini ifodalaydi.

Bolalardan tortib, shahar merigacha

Ekologik madaniyat va tarbiyaga bag‘ishlangan ilmiy ish bilan tanishishga to‘g‘ri keldi. U bunday izohlar bilan boshlangan: “Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida o‘quvchilarning ekologik ta’lim va tarbiyasi umumiy, jumladan, texnik ta’limning muhim sharti sanaladi.

Yaponiyadagi ekologik tarbiya metodikasi alohida qiziqish uyg‘otadi. Chunki ushbu mamlakatda ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi atrof-muhitga nisbatan salbiy ta’sir ko‘rsatishi yuqori darajaga chiqqan bo‘lishiga qaramay, yaponlar ekologik vaziyatni nazorat ostiga olishga, bundan tashqari, uni yaxlitligicha barqarorlashtirishga erisha oldi. So‘nggi 25 yilda Yaponiyada odamlarning psixologik kayfiyatida o‘zgarish yuzaga keldi. Ekologik tafakkur millat axloqiy qarashlarining bir qismiga aylangan. Tadqiqot so‘rovnomalarida qatnashgan yaponlarning to‘rtdan uch qismi agar mamlakatdagi ekologik vaziyatni yaxshilashga xizmat qilsa, o‘z manfaatlaridan ham voz kechishga tayyor ekanini bildirgan. Kunchiqar mamlakatda bolalar, maktab o‘quvchilari, talabalar, tadbirkorlar, uy bekalari, kompaniyalar prezidentlari, shahar merlari va gubernatorlarni, bir so‘z bilan aytganda, barchani atrof-muhitga e’tibor va hurmat bilan qarashga o‘rgatishadi”.

Mazkur ilmiy ishda u yerdagi yana bir o‘ziga xos o‘quv mashg‘uloti haqidagi ma’lumotlar har qanday kishining e’tiborini tortadi. Unga ko‘ra, bog‘chalarning katta guruh bolalari va birinchi sinf o‘quvchilari tarbiyachi va o‘qituvchilar rahbarligida tabiat bilan bevosita tanishish maqsadida dam olish kunlari ba’zan shahar tashqarisiga olib chiqilarkan. Bu atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, uni asrab-avaylash bilan bog‘liq amaliy mashg‘ulotdan iborat. Yapon bolakaylari tabiat bilan tanishish asnosida polietilen qoplarga tashlab ketilgan chiqindilarni to‘playdi. Bolalarning bu ishiga ko‘zi tushgan kattalar esa jilla qursa, muayyan vaqt duch kelgan joyga chiqindini qoldirib ketishdan o‘zini tiyadi.

Bolalar ulg‘ayganda esa tabiatga zarar yetkazmaslik, atrof-muhitni ifloslantirmaslik borasidagi qarashlari mustahkam shakllangan bo‘ladi.

Bu ayrimlar o‘ylagandek mayda ish yoki majburiy mehnat ham emas. U qonunlar bilangina emas, shuningdek, tabiatga qanday munosabatda bo‘lish va uni asrash uchun nimalar qilish kerakligini bog‘cha yoshidan so‘z va amalda o‘rgatish orqali samara berishini namoyon qilayotir.

* * *

Tahsinga sazovor an’ana. Tabiatga nisbatan hurmat bilan yondashuvga bog‘liq qadriyatlar xalqimizda ham azaldan mavjud.

Mamlakatimiz rahbari o‘tgan yil 23-noyabr kuni Toshkent shahri atrofida “yashil belbog‘” barpo etish loyihasi doirasida daraxt ekish tadbiridagi ishtiroki chog‘ida bunday degandi:

— Bu an’ana o‘zi bizda bor. Xalqimiz tabiatni “ona” deydi, yerni, suvni e’zozlaydi. Buning zamiridagi haqiqat hozirgi ekologik muammolar ta’sirida yaqqol namoyon bo‘lyapti. Shuning uchun “Yashil makon” loyihasini boshladik. Kelgusi yil nomini ham atrof-muhitni asrash masalasiga bag‘ishladik. Endi bu tashabbuslar keng yoyilishi, ayniqsa, yoshlarimizga chuqur singishi zarur. Har bir xonadon, har bir korxona tabiatni asrashga hissa qo‘shishi kerak...

Afsuski, tabiat bilan bog‘liq ko‘plab ezgu an’analarimizni yoshlar unutgan ko‘rinadi. Yodimizda borlari esa xalq og‘zaki ijodi namunalarida, ajdodlarimiz o‘gitlaridagina saqlanib qoldimi yoki aholining bu boradagi sa’y-harakatlari sust ko‘rinayotgani uchun shunday xulosaga kelyapmizmi?

“Faxrli” to‘qqizinchi o‘rin

Yashiradigan yoki istihola qiladigan holat emas. Poytaxtimiz dunyodagi havosi eng kuchli ifloslangan shaharlar qatorida qayd etilmoqda. Inson salomatligi uchun eng katta xatarlardan biri, shubhasiz, atmosferaning ifloslanishidir. Odamzod esa suv va havosiz yashay olmasligini ham bilamiz. Ya’ni istasak-istamasak, o‘zimiz shu ko‘yga solgan havodan to‘xtovsiz nafas olamiz.

BMT mutaxassislari tahlillariga ko‘ra, avtomobillar va texnik ishlab chiqarish vositalari ko‘pligi bois, havoning ifloslanishi yirik shaharlarda ancha yuqori darajaga chiqadi. Ifloslangan havodan nafas olish insult, o‘pka saratoni va nafas yo‘li bilan bog‘liq qator o‘ta xatarli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Statistikaga nazar tashlaymiz: bir yilda bir kvadrat kilometr joyga 70-90 tonna sanoat chiqindisi tashlanarkan. Taxminan yuz yil avval havodagi sanoat changi 1-2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, endilikda 30, sanoatlashgan katta shaharlarda 50 foizgacha yetadi. Bir-biriga zanjir kabi bog‘lanib ketgan muammolar iqtisodiyot, oziq-ovqat ta’minoti, atrof-muhit tozaligi borasida ham katta xavf solayotirki, ularning ko‘lami yil sayin kengayib bormoqda. Agar tabiatga nisbatan madaniyatimiz, qarashlarimiz keskin o‘zgarmasa, bu borada amaliy ishga kirishilmasa, ahvol o‘nglanmaydi deb baholayapti mutaxassislar.

Insoniyat qaysi mamlakat yoki xalqqa mansubligidan qat’i nazar, har bir masalada boshqalardan yaxshi tomonlarini o‘rganish va o‘zlashtirishga harakat qilib keladi. Shu ma’noda, yana bir bor yaponlarning ekologik ta’lim va tajribasiga qisqacha nazar tashlash zarar qilmaydi.

Tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, Yaponiyada ekologik ta’lim va madaniyat bir qator uslublarda shakllantiriladi. Jumladan, atrof-muhitni saqlash, muhofaza qilish mahalliy hokimiyat organlarining vazifasi va burchi ekanini, ular bu vazifalarni keng demokratik tamoyil bilan bajarishi, ya’ni o‘zlari istiqomat qilayotgan hududlar (shahar, qishloq va hokazo)ni, jumladan, sanoat va boshqalarni rivojlantirish rejasini muhokama qilish va uni amalga oshirishga aholini imkon qadar ko‘p jalb qilish kerakligi belgilangan. Shu tariqa ekologik tarbiya va ta’lim, birinchi galda, fuqarolik ta’lim-tarbiyasi bo‘lishi, ya’ni fuqarolarda faol ekologik axloq pozitsiyasini shakllantirishga ko‘maklashmog‘i lozim. Bu esa insonlar uchun maqbul bo‘lgan atrof-muhitni saqlash va muhofaza qilish garovi sanaladi.

Kimga rag‘bat, kimga jarima?

Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi ishlab chiqilib, jamoatchilik va ekspertlar keng muhokama qildi.

Ushbu davlat dasturi loyihasida 2025-yil uchun beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxati va maqsadli ko‘rsatkichlar ko‘zda tutilgan. U Oliy Majlis Senati tomonidan ham qizg‘in muhokama etildi. Dasturiy hujjat mazmun-mohiyati, ahamiyati bo‘yicha munosabatlar, taklif va tashabbuslar bildirildi. Mazkur jarayonning mavzuga aloqadorligi shundaki, unda ekologik barqarorlikka erishishga oid rejalar hamda maqsadlar o‘rin olgan. 2025 va 2026-yildan kuchga kiradigan reja va qoidalarning ayrimlarini eslatib o‘tamiz.

Dastur doirasida ko‘p qavatli uylar massivlaridagi umumiy foydalanishda bo‘lgan tuproqli va yashil hududlarni o‘zboshimchalik bilan betonlash, qurilma va konstruksiyalar o‘rnatganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytiriladi. Pishgan va xom g‘isht ishlab chiqarishda yer va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 10 baravar oshiriladi.

Devorbop materiallardan (peno-blok, gazoblok) foydalanuvchi qurilish tashkilotlariga “Shaffof qurilish” platformasida ustuvorlik beriladi.

“Yashil tadbirkor” maqomi berilgan tadbirkorlik subyektlariga muayyan muddat davomida ekologik tekshiruvlardan ozod etilishi, xalqaro bozorlarga chiqish uchun qo‘llab-quvvatlov imkoniyatlari yaratiladi.

Chiqindilar utilizatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun “yashil tarif”lar 2025-yil 1-apreldan joriy etiladi. Aholining quyoshdan olingan va foydalanishda o‘z ehtiyojidan orttirib, davlatga sotadigan elektr energiyasi uchun imtiyozli tariflar belgilanadi.

“Ekofaol fuqaro” maqomidan xabardormisiz?

Joriy yil mamlakatimizda “Ekofaol fuqaro” hayot tarzini keng targ‘ib qilishga qaratilgan “Bir million yashil oila” umummilliy harakati yo‘lga qo‘yiladi.

Aholi orasida kunlik yurish va yugurish targ‘ib qilinib, “yashil transport”da, shu jumladan, velosipedda harakatlanish rag‘batlantiriladi. Yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan fuqarolarga “Ekofaol fuqaro” maqomi beriladi, shuningdek, ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanishda 10 foiz chegirma va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan banklarda iste’mol krediti olishda chegirma taqdim etiladi.

Oilaning barcha voyaga yetgan a’zolari “Ekofaol fuqaro” maqomini olganda, ushbu oilaga “yashil oila” maqomi berilib, har yili lotereya orqali 14 ta elektromobil berish tartibi joriy qilinadi.

Taqiq va majburiyatlar

Plastik paketlarni ishlab chiqarish, olib kirish va ulardan foydalanish taqiqlanadi (2027-yildan). Bunday mahsulotlar taqiqlarning ilk qatoridan joy olganining jiddiy sababi bor. Gap shundaki, polietilen paketlar (umuman, shu turdagi mahsulotlar) uncha-munchaga parchalanmaydi. Dunyo bo‘yicha yiliga 5 trilliontagacha shunday mahsulot ishlab chiqariladi. Ular turiga ko‘ra, 50 yildan 1000 yilgacha parchalanmay saqlanib qoladi. Yoqib yuborilganda esa katta miqdorda is gazi va turli zararli konserogenlar ajralib chiqadi va atmosferani zararlaydi. Ko‘mib yuborilsa, yuz yillab chirimay turgani sabab tuproq va suv manbalarini zaharlaydi. Okean, daryo va ko‘llarga tashlab yuborilgan bu turdagi chiqindilar hayvonot olamiga ham qiron keltirmoqda. Xorijni qo‘ya turaylik, mamlakatimizning deyarli barcha do‘konlarida ham xarid qilgan mahsulotingizni qavat-qavat qilib shunday paketlarga solib berishadi.

Taqiq va majburiyat ro‘yxatini davom ettiradigan bo‘lsak, 2025-yil yakuniga qadar “Euro-4” standartidan past ekologik toifadagi motor yoqilg‘isidan foydalanish va sotish cheklanadi. Xo‘jalik faoliyatini yurituvchi korxona va tashkilotlar tomonidan yetkazilgan ekologik zararlarni majburiy sug‘urtalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Respublikamizning barcha hududlarida joylashgan issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalariga yoqilg‘i sifatida mazutdan foydalanish taqiqlanadi.

Yer sug‘orishda oqova, yomg‘ir va texnik suvlardan foydalanish tizimlari majburiy tashkil etiladi. 2025-yil 1-sentabrdan 2028-yil 1-yanvarga qadar mamlakatimizda ov qilishga moratoriy joriy qilinadi. Bunda moratoriy fermalar, pitomniklar, inkubatorlar, baliqchilik pitomniklari va hovuz xo‘jaliklarida saqlanayotgan va (yoki) yetishtiriladigan yovvoyi hayvonlarni ovlash hamda sanitar maqsadlarda ov qilishga tatbiq etilmaydi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarni yig‘ish va tayyorlash uchun tasdiqlangan kvotalar hamda o‘simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalar elektron auksion orqali beriladi.

Orol dengizi tubida 100 ming gektar yangi yashil maydon barpo etiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida sho‘r va suvsizlikka chidamli o‘simlik bog‘lari tashkil etilishini ham faqat olqishlash mumkin. Joriy yilda mamlakatimizda umumiy quvvati 3,5 gigavatt bo‘lgan 16 ta yirik quyosh va shamol stansiyaci ishga tushiriladi.

Ha, loyihalarimiz ko‘lami ham, ahamiyati ham ulkan. Ularni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish mas’uliyati bundan-da katta. Mas’uliyat esa e’zozlab aytadiganimiz — ona tabiat, kelajak avlod oldidagi javobgarlik.

2025-yil 29-yanvar, 20-son

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz_official yuz.uz_news yuz.uz

Prezident tashabbuslari amalda

G‘IJDUVON

ISHBILARMONLIK AHOLI TURMUSHIGA

Boshlanishi 1-betda

Bu boradagi qat’iy qadamlar bir-biriga ulandi. Soha rivojiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘tgan yillar davomida biznes yuritishga doir 100 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi, ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtirilib, muddatlari qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xomashyo bo‘yicha ko‘plab cheklovlarga barham berildi. Natijada ichki va tashqi bozorda o‘z nufuzi hamda brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi. Bu iqtisodiyot lokomotivlarini yetishtirib beradigan muhit ichida mahalliy ishbilarmonlar o‘z mahallasi, o‘z hududidagi odamlar uchun chinakam yetakchilarga aylandi, Endi “nima ham ish qilardim” degan bahona o‘rnini yaxshi ma’noda “qayerda ishlaganim qulayroq?” degan tanlov egalladi.

Keyingi yillarda aholi o‘rtasida va davlat idoralarida tadbirkorlarga nisbatan ijobiy tarafga o‘zgargan ushbu munosabat mulk va mulkdorlar, xususiy sektor vakillarining huquq hamda manfaatlari qonun yo‘li bilan himoya qilinishini yanada mukammallashtirdi. Ana shulardan kelib chiqib, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko‘nikmalar yangi O‘zbekistonning real voqeligiga aylanib bordi.

G‘ijduvon tajribasi bilan yaqindan tanishish uchun Buxoroga uyushtirgan uch kunlik safarimiz mobaynida shaxsdagi tadbirkorlik motivatsiyasi hamda tavakkalchilikning shakllanishidagi bog‘liqlikni o‘rganar ekanmiz, undagi tavakkal, qaysidir ma’noda xatarli bo‘lgan qarorlarni qabul qilishdagi og‘ishlar e’tiborimizni tortdi.

Guruhiy tabaqalanishni tadqiq qilish jarayonida shunday narsa kashf etildiki, insonlar bir o‘zi bo‘lganidagiga qaraganda guruh orasida tavakkal qarorlarni ko‘proq qabul qilishga moyilroq ekan. Ba’zi shaxsiy kuzatuvlar natijasiga ko‘ra shunday xulosaga keldikki, tadbirkorlik shunchaki tizimli harakatdan iborat emas. Muvaffaqiyatli tadbirkorga aylanish, odamlarni ishbilarmonlikka jalb qilish uchun ularning, ya’ni ma’lum bir hududda istiqomat qiladigan aholining umumiy kayfiyati, xarakteri, qiziqish va muammolari tahlil etilmog‘i lozim.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Sherzod ASHUROB,
G‘ijduvon tumani hokimi

2024-yil 31-may — 1-iyun kunlari Prezidentimiz viloyatimizga tashrifi chog‘ida G‘ijduvon tumanida ham bo‘lgan edi. Unda ish o‘rni yaratilishi, eksport ko‘lamini kengaytirish, hududda mavjud mahallalarning har biri uchun 100 milliard so‘mdan tushum bo‘yicha imkoniyatlarni ko‘rsatib, yirik miqdorda mablag‘lar ajratilishi xususida to‘xtalgandi. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari tomonidan mutasaddilarga G‘ijduvon tumanida aholi bandligini oshiradigan loyihalarni keng qo‘llab-quvvatlash, zarur ko‘maklar ko‘rsatishga oid topshiriqlar ham berildi.

1 trillion so‘mga yaqin mablag‘ Buxoroning eng yirik hududlaridan biri, tadbirkorlar makoni bo‘lgan G‘ijduvon tumanining 75 ta mahallasi va guzarini eng namunali darajaga olib chiqish imkonini berishi shubhasiz edi. Shunday ekan, men har doim G‘ijduvon tajribasi sifatida ko‘rilgan, natijalari respublikamizning turli hududlari aro qo‘llanilishi kutilayotgan ishlarga javoban tuman aholisi ham har bir yuksalishga shukronalik ila hissa qo‘shishdan charchamasligi va to‘xtamasligi kerakligini ta’kidlab kelaman.

Uzoq yillar davomida tadbirkorlarga keng yo‘l ochib kelingan bo‘lsa-da, ilgari ushbu tumanda yashirin sexlar, korxonalar xuddi qo‘ziqorindek ko‘payib ketgan edi. O‘rni kelganda aytish kerakki, yashirin sexlar topgan daromaddan kekirdagini to‘ldirib yurgan korchalonlar ham bo‘lgan. Bugun har bir yashirin sex faoliyati oldi olinyapti. Lekin ular avvalgi tartibga muvofiq, keskin tarzda yopib tashlab, faoliyatiga chek qo‘yilmayapti. Balki ish faoliyati qonuniylashtirilib, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatilmoqda. Qorong‘ilik aro “soya”da qolib ketayotgan bu yashirin sexlar faoliyatini oydinlikka olib chiqish bugun tumanning eng dolzarb masalasiga aylangan.

UZOQ KUTILGAN HODISA

17 yil soliq tizimida faoliyat ko‘rsatganman. U paytlar yashirin sexlar aniqlansa, jarimasi bor edi. Aniqlangan yashirin sexlar mahsulotlari yuz foiz davlatga o‘tkazilib, katta miqdorda jarimaga tortilardi. Yangi soliq kodeksiga ko‘ra, bunday holatlarga munosabat qonunan o‘zgartirildi. Yashirin sexlar “soya”dan chiqadigan bo‘lsa, ishchi-xodimlariga yaxshi sharoitlar yaratib berib, qonuniy ishlashni boshlasa, bir yillik solig‘ining yarmi qaytarib beriladi. Bu o‘z-o‘zidan uyda yoxud turli yerto‘lalarda soliqdan qochib “kun kechirayotgan” tadbirkorlarning qonuniy ishlash imkoniyatlarini oshirishga turtki bo‘ladi. Mana buni oqilona yechim deyish mumkin. Bu ham G‘ijduvon tajribasi sifatida ko‘rilgan.

Bundan tashqari, tuman infratuzilmasiga oid bir qator masalalar bor. Aholi uchun zarur binolarning hammasi qaytadan bir manzilda bunyod etiladi va birlashadi. Shuningdek, tuman hududidan temir yo‘l o‘tkazilgani katta imkoniyat. Bu yerdagi tadbirkorlar ishlab chiqargan mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda poyezd xizmati orqali amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Yo‘l xarajatlari qiymati o‘zgaradi.

Endi G‘ijduvon xotin-qizlari jazirama paxta dalasida og‘ir mehnat qilib, kam daromad topmaydi. Har bir mahallada tashkil etilgan turli yo‘nalishlarda yaratilgan sex va ishlab chiqarish korxonalarida, ya’ni biroz erish eshitilsa-da, salqin joylarda mehnat qiladi. Ishlab chiqarish korxona va sexlarini tiklashda mahallalarda joy bo‘lmasa, paxta va g‘allaga mo‘ljallangan yer maydonlaridan, Prezidentimiz aytganidek, o‘zlari istagan joydan ajratib beriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ajratilgan mablag‘lar bilan tuman mislsiz taraqqiyot go‘shasiga aylanishiga shubham yo‘q. Ammo uning ortida ulkan mas’uliyat, yuk bor. Har bir savolga javobgarlik bilan teng mas’uliyatni zimmaga olib, reja va amallarni birgalikda puxta hal qilib, dovon oshishimiz lozim. O‘zimizda javobgarlik hissini yuksaltirishimiz darkor. Maqsad esa bitta bo‘lishi kerak: G‘ijduvon tajribasi yo‘lida odamlar bilan bir tanu bir jon bo‘lib, fidoyilik ko‘rsatish, toza vijdon bilan uni to‘liq amalga oshirish.

Bir vaqtlar “Gulistonobod” MFYda faoliyat olib borayotgan “Ortiq Dilnavoz” MCHJ rahbari Dilnavoz Saidova bilan suhbat o‘tkazilganda kichik mahalla guzarida tikuvchilik yo‘nalishida faoliyat olib borayotgani, ishlab chiqarayotgan mahsulotlari xaridorgir bo‘lsa-da, yaqin hududda bo‘sh yer yo‘qligi sababli loyihasini kengaytira olmayotganini bildirgandi. “Mikrokreditbank” ATB rahbari tashabbusi bilan mahalla hududidagi maydondan 5 sotix yer ajratilib, umumiy qiymati 2 milliard so‘m bo‘lgan tikuvchilik loyihasi doirasida qurilish ishlari boshlab yuborildi. Bugungi kunda qurilish-jihozlash ishlari to‘liq yakunlanib, tikuvchilik sexida 100 dan ortiq ayol doimiy ish bilan band bo‘ldi.

Viloyat hokimi tashabbusi bilan ishlab chiqarish korxonalari deyarli mavjud bo‘lmagan, ishsizlik darajasi yuqori “Sho‘rcha” va “Sohibiyon” MFYlari aholisi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida 51-umumta’lim maktabining bo‘sh va qarovsiz qolgan bino hamda yer maydonlarida bir nechta loyihalar amalga oshirildi.

Jumladan, aholining taklifi bilan hududda davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti yo‘qligini inobatga olib, bo‘sh turgan 6 ta sinf xonasi qayta rekonstruksiya qilinib, 150 o‘rinli bog‘cha, foydalanilmayotgan va qarovsiz holga kelib qolgan chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash xonalari va o‘q otish sport inshootida 120 o‘rinli tikuv sexi va kichik ishlab chiqarish sexlari, qarovsiz, favqulodda vaziyatlarda foydalaniladigan yerto‘lada qo‘ziqorin yetishtirish xonalari tashkillashtirildi. Shuningdek, maktab oshxona binosi to‘liq ta’mirlanib, bir qismi o‘quvchilar uchun, bir qismi bog‘cha bolalari uchun oshxona sifatida foydalanishga topshirildi. Natijada 200 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratilib, mazkur MFYlarda ishsizlikka barham berildi.

“Parvoz Humo Ravnaq trans” MCHJ 3 ta loyihani (ip yigiruv, to‘quv, bo‘yash va tayyor mato) amalga oshirganidan keyin tikuvchilik fabrikasi qurish uchun yer maydoni yetarli bo‘lmagani va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlash maqsadida 4 qavatdan iborat inshoot qurildi. Hozirgi kunda yerto‘lada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlash uchun omborxona tashkil etildi, uchta qavatga tikuvchilar joylashtirilib, 2000 dan ortiq xotin-qiz bandligi ta’minlandi.

“Beg Bags” MCHJning jami yer maydoni 0,2 gektarni tashkil etadi. Avvaliga yerto‘la va birinchi qavatlar ishga tushirilib, hozirda ikkinchi qavatda faoliyat yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur korxona turli xil sumkalar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi, yillik ishlab chiqarish hajmi esa 1,2 milliard so‘mni tashkil etadi. Sanoatni pastdan tepaga ko‘tarish evaziga korxonada jami 50 nafar xodim ishlamoqda.

Bunday korxonalarni sanab, sanog‘iga yetolmaymiz. Biz ko‘pincha raqamlar sharhiga to‘xtalishdan erinamiz, aslida, aholining turmush tasvirlari, ular va tadbirkorlarning yashash tarzi aynan raqamlarda aks etadi. Masalan, o‘n xildan ortiq qandolat mahsulotlari ishlab chiqaradigan “O‘ktamjon Miraziz shirinliklari” korxonasining yillik ishlab chiqarish quvvati 13,9 million dollarni tashkil etadi. Eksport hajmi — 20 foiz. 25 nafar ishchi faoliyat yuritadi. Bu yigirma besh oilaning farovonligi ta’minlandi degani. Ular farzandlari, ota-onasi yoki jigarlari uchun yetarli sharoit yaratib berishga qodir. Barchamiz mana shu sanoat zanjiri uzayishini, har bir xonadonga ulanib, uy chirog‘i yorqinroq porlashini istaymiz. Qilingan ishlardan ko‘ra bajarilayotgan va bajarilishi zarur bo‘lgan islohotlar, ishlar, rejalar bisyor.

Lider tadbirkorlarni jalb qilgan holda chora-tadbirlarni to‘liq amalga oshirish uchun allaqachon ishga kirishib ketganmiz. Shukronalik hissi va mehnatimiz bilan hammasini amalga oshirishimiz darkor, oshiramiz ham. Axir buyuk tarixga ega tuman bu. G‘ijduvonda ilmsiz odam qolmaydi. Ishsiz qolmaydi. Hunarsiz odam qolmaydi. Men ham, tumanimiz aholisi ham bunga ishonadi.

IMKONIYAT QIYMATI NIMA?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ekspertlari tomonidan 2017-yildan 2020-yilga qadar 3 yilda qilingan murojaatlarning lingvistik va kontent tahlili amalga oshirilib, ularni tasviriy ifodalovchi so‘zlar jamlanmasi tuzilgan edi. Undan keyin to bugungacha ham jamlanma qilingan bo‘lsa kerak. Gap unda emas, gap matnlar tahlili natijasida aniqlangan so‘zlar borasida.

Prezidentimizning Oliy Majlisga va aholiga murojaat qilish an’anasi dastlab 2017-yil dekabr oyida joriy etilgan. Prezident o‘z Murojaatida odatda o‘tgan yilni sarhisob qiladi va yaqin kelajakda respublikani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlariga to‘xtalib o‘tadi. Davlatimiz rahbarining 2017-yildagi Murojaatnomasida eng ko‘p “xalq” va “tadbirkor” so‘zlari qo‘llanilgan. Xususan, “tadbirkor” so‘zi “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik”, “tadbirkorlar va investorlar”, “tadbirkorlarga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish”, “tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish” kabi kontekstlarda qo‘llanilgan.

2018-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomada esa “islohot”, “investitsiya” va “iqtisodiyot” so‘zlariga eng ko‘p urg‘u berilgan. Davlatimiz rahbarining 2019-yildagi murojaatida eng ko‘p “tadbirkor”, “ijtimoiy” va “ilm” so‘zlari uchraydi. Ularning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy yordam, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, xalq farovonligini oshirish, yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlash kabi masalalar har yilgi murojaatnomalarning ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

G‘ijduvon tajribasidek istiqbolli ishlar bugunning o‘zida o‘ylab topilgani yo‘q, yillar davomida pishitilgan, sodir bo‘lish va amalga oshish lahzasi kutilgan, imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘lga kerakli vaqtda yo‘naltirish qobiliyati shakllantirilgan.

Imkoniyat qiymati deb inson bir narsani qilish imkoni bo‘la turib, boshqa narsani tanlagani sababli qo‘yib yuborilgan fursat qiymatiga aytiladi. Boshqacha qilib aytganda, imkoniyat narxi bu muqobil tanlovni iste’mol qilmaslik natijasidan kelib chiqqan “xarajat”. Masalan, bir joyda tekinga osh tarqatishyapti deb tasavvur qilaylik. Shu oshni olish uchun bir soat navbat kutishingiz kerak. U yerda navbatga turishingiz bilan shu vaqtda yana boshqa biror narsani qilish imkoniyatidan voz kechdingiz. Demak, tekinga osh yeyishning imkoniyat bahosi uning o‘rniga qila oladigan narsalardan iborat. Shu bir soat kutishning o‘rniga ishlashingiz, biror g‘oya ustida bosh qotirishingiz, o‘qishingiz, hech bo‘lmasa, ruhiy quvvat olish uchun hordiq chiqarishingiz mumkin edi. Demak, o‘sha tekin osh, aslida, tekin emas, chunki uni olish uchun siz boshqa narsalardan voz kechdingiz.

Shuning uchun siz voz kechadigan fursat uning o‘rnini o‘n baravar qilib qoplaydigan imkoniyatdan past bo‘lishi kerak, soddaroq qilib aytganda, iqtidoringiz, mehnatingiz va shijoatingizni to‘g‘ri yo‘naltira olsangiz, bu mexanizmning o‘zi ishlab ketaveradi. Ayni kunlardagi maqsadimiz ham shunday: G‘ijduvon tumani aholisini mana shu imkoniyat qiymatidan boxabar qilish, har bir fuqaroning imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishdir.

Mansurjon JO‘RAYEV,
G‘ijduvon tumani hokimligi axborot xizmati rahbari

Tadbirkorlikning psixologik xususiyatlari fenomenining ilmiy tahlili hozirda uning iqtisodiy fikrlari taraqqiyoti kabi rivojlanib bormoqda. So‘nggi yillarda ushbu fenomen muammosining dolzarbligini tushuntirish tadqiqotchilar, mahalliy olimlar oldiga qator vazifalar qo‘ymoqda. Ba’zi xulosalar eskirganini yoki hududga qarab o‘zgarib turishini inobatga olishimiz lozimligini bugungi tadbirkorlik jarayonining o‘zi isbot qilib beryapti.

TAVAKKALCHILIK YANGI G‘ALABALARGA ZAMIN HOZIRLAYDI

Masalan, tadbirkorlarda odatda yosh o‘tishi bilan tavakkalchilikka moyillik pasayib boradi, tajribalilarida bu ko‘rsatkich shundoq ham ancha past. Tadbirkor ayollarning tavakkalchiligi erkaklardan farqli o‘laroq ayrim hollardagina namoyon bo‘ladi. Bu milliy mentalitet bilan izohlanishi mumkin, degan gaplar bilan bugun umumiy xulosa qila olmaymiz. O‘ttiz besh-qirq, kerak bo‘lsa, ellik yoshdan so‘ng barcha ishlarini yig‘ishtirib, o‘zini tadbirkorlikda sinab ko‘rish uchun ham iqtisodiy, ham ruhiy tavakkal qilgan, aksariyati hozirda yirik mahalliy ishbilarmonlarga aylangan bir nechta odamlarni bilaman. O‘zim ham ellikdan oshganman, tavakkaldan qo‘rqmayman, manfaatli bo‘lgan har qanday yangiliklarga tashnaman.

Chindan, tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilik tadbirkorning asosiy emotsional-irodaviy xususiyati sifatida o‘rin tutadi. Ko‘p hollarda mag‘lubiyatdan qochishga bo‘lgan ehtiyojni sezish, tadbirkorda tavakkalchilikka nisbatan moyillik cheklanishiga olib keladi. Tavakkalchilik kayfiyati qanchalik oshsa, mag‘lubiyatdan qochish istagiga nisbatan zarurat shunchalik kamayadi. Shuningdek, tavakkalchilikka moyillik muvaffaqiyatga nisbatan ijobiy bog‘lanish hosil qilib, bu tadbirkorda xo‘jalik faoliyatini yuritishda va strategik maqsadlarni amalga oshirish vaqtida yangidan yangi g‘alabalarga zamin yaratadi.

Tavakkal qilmoqchi bo‘lgan odam ham baribir nimagadir suyanadi, tayanch nuqta bo‘lmasa, hatto tavakkaldan naf yo‘q. Prezidentimizning shaxsan o‘zi javlon urib mehnat qilinglar, nima muammo bo‘lsa, hal qilamiz, deb turgan paytda tavakkal qilish bu ishonch va umid hosilasidir. Nimagadir erishishga ishonish imkoniyati, qarori deb o‘ylayman.

2024-yil 17-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida G‘ijduvon tajribasi asosida tuman hokimlariga yil yakuniga qadar mingta mahallada vertikal o‘sadigan sanoat binolarini tashkil qilish topshirildi. Bunday binolarda xonadonlarda tashkil qilingan, lekin kengayish imkoni bo‘lmagan ishlab chiqarishlar uchun sharoitlar yaratish vazifasi yuklatildi. Mahallalarni 5 toifaga ajratib ishni tashkil etish, mahallalarga sanoatni olib kirish, xonadonlarda kichik ishlab chiqarishlarni tashkil etish (vertikal o‘sadigan sanoat binolarini tashkil qilish), borlarini “soya”dan chiqarish, tadbirkorlarni eksportga yo‘naltirish kabi ishlar G‘ijduvon tajribasining asosiy vazifalari etib belgilandi. Bularning barchasi nega kerak deb o‘ylaysiz? Davlatimiz tadbirkorlarga ko‘mak bilan birga bilim berishni ham maqsad qilgan. Salohiyatingiz yuqori, dunyoqarashingiz keng bo‘lmasa, bir so‘mni ikki so‘m qilish hadisini o‘rgana olmaysiz. Davlatimiz rahbari tadbirkorlikni endi boshlayotganlarga o‘zini erkin his qiladigan hamjamiyatni va o‘ziga bo‘lgan ishonchni tutqazdi. Yurtimiz istiqboli bilan bog‘liq holda hatto ayollar tadbirkorligi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko‘rish mumkin.

Islom XUDOYBERDIYEV,
hunarmand

TAJRIBASI: FAROVONLIK OLIB KIRDI

2024-yilning kuzida G‘ijduvon tajribasi bo‘yicha belgilangan aniq rejalar asosida harakatni boshlagandik. Rejaga ko‘ra, tumanda 20 ta mahallada G‘ijduvon tajribasi asosida sanoatni vertikaliga o‘stirish va aholini kambag‘allikdan chiqarish, bandlikni ta’minlash borasida rejalar belgilanib, o‘zimga ham 5 ta oila biriktirilgan edi. Ular bilan ishlash tizimi ham yaratildi. Maqsadimiz bitta — mahallalarda kambag‘allikni qisqartirish.

Yaqin yillarga qadar tadbirkor ayol bo‘lishning o‘ziga yarasha og‘ir-yengilliklari haqida ayollarimizda yetarli darajada tushuncha yo‘q edi. Har doim ham tadbirkor ayollarning ijobiy imiji yaratilmadi. Hozir esa ba’zan shunday katta rejalar, g‘oyalar haqida o‘ylab qolganimda turmush tashvishlaridan ortganimga, suhbatlarimiz mavzusi endi qozon-tovoq, taqir-tuqur, yaltir-yulturlardan ancha balandda ekaniga ishonmay, ich-ichimdan sevinib qo‘yaman.

BESH-OLTITA TIKUV MASHINASI, TOR XONA, KENG VA YORUG‘ UMIDLAR

Axir bir paytlar o‘zbek ayoli deganda, odamlarning ko‘z o‘ngida ko‘p narsadan xabari yo‘q, o‘choq boshida kuymalanib yuradigan, ortiqcha shovqin solmay, mol-hol bilan kun o‘tkazadigan g‘aribroq tasavvur gavdalanardi. Yo‘q, hozir sharoit umuman boshqacha. Sharoit boshqacha degan gapni balki o‘ttiz yil oldin ham aytishgandir, bilmayman, ammo ayni paytdagi imkoniyatlar, yengilliklar rostdan o‘zgacha, o‘ziga xos va ko‘p. Oldinda hali mendan foydalan, degan qanchadan qancha qulayliklar bor. Unisi yo‘q ekan, bunisi qiyshiqmish, nega bunga yordam bermadi, shunchaki gap ekan-da, deb kimlarnidir asossiz ayblab, erinchoqligi, hafsalasizligi va mas’uliyatsizligini birovning yelkasiga ortib, umrini nolish bilan o‘tkazgandan ayni chog‘da bor imkoniyatdan yuqori darajada foydalanish kerak deb hisoblayman.

Juda kuchli intilishi bo‘lgan ayol uchun tadbirkor bo‘lish oson. Lekin tadbirkorlikni boshlagandan keyin haqiqiy ishbilarmon bo‘lib qolish qiyin. Katta energiya, kuch talab qiladi. Bularning bariga bardosh berolmagan tadbirkor o‘z biznesini rivojlantira olmaydi. Doimiy tarzda yangi texnologiyalar, bilimlarni o‘zlashtirmasa, globallashuv masshtabiga kira olmasa, biznesni rivojlantirishga imkon yaratilmaydi.

Bizning ayollarimiz judayam irodali. Biznesda muvaffaqiyatga erishgan ayollarning ko‘pchiligini yolg‘izlar tashkil qiladi, degan gap bor. Men buni yoqlamayman. Balki boshqa joylarda chindan shundaydir, lekin shaxsan men turmush o‘rtog‘im va oilamning qo‘llab-quvvatlovi bilan o‘z maqsadimga erishishda davom etyapman. Ikki-uch yil oldin ehtiyoj tufayli tadbirkorlikni boshlagan, dastlab o‘zi ham ishonqiramagan soddadil ayol bugun qarshingizda ulkan g‘oyalar bilan turishining asl sababi ham oilamning, yaqinlarim va davlatimizning meni yolg‘iz tashlab qo‘ymaganidadir. 33 million so‘mlik kredit, besh-oltita yangi tikuv mashinasi, torroq xona va keng, yorug‘ umidlar bilan ochilgan kichik biznes bugun yuzdan ortiq xotin-qizlarimizning ish bilan ta’minlanishiga zamin yaratib bermoqda.

2020-yilga qadar hamma uy bekalari kabi edim. Qandaydir biznesga egalik qilish men uchun erishib bo‘lmas narsa, ochig‘i, nima xohlashimni ham bilmasdim. Bir kuni mahalla va bank xodimlaridan iborat jamoa garovsiz kredit ajratilyapti, Dilnavoz, Ortiq, nimadir qilishga urinib ko‘rmaysizlarmi, xoh u tomorqa bo‘lsin, xoh chorvachilik, o‘zlaringga va boshqalarga manfaati tegsa bo‘ldi, deya taklif bilan keldi. Tikuvchilikka qiziqqanim uchun sex ochishga qaror qildik. Shunday qilib, kredit evaziga yettita tikuv mashinasi sotib oldim, ikki-uch ayolni yonimga qo‘shdim. Qarasam, qancha keng bo‘lmasin, uyning ichida bitadigan ish emas. Mahalla raisiga uchrashib, nimadir so‘rashga qimtinib yuradigan Dilnavozga g‘oyibdan shijoat keldimi, birdaniga G‘ijduvon tumani hokimi oldiga bordim. Mahallamizda abgor holatdagi choyxona bor edi, shuni menga bersangiz, o‘z hisobimdan ta’mirlab, vaqtinchalik tikuvchilik sexi sifatida foydalanib turaman, dedim. Hokimimiz, baraka topsin, shiddatni kesadigan birorta ortiqcha gap gapirmadi, bexijolat, iloji bo‘lsa, boshqa qarovsiz yotgan binolarni ham oling, deya ruhlantirdi. 2021-yil fevral oyida faoliyatimni boshladim, hammasini kerakli vaqt, kerakli joyda boshlaganim uchunmi, qisqa vaqtda foydaga kirdim. Buyurtmalarga ulgurmay, surunkasiga ishlagan kunlarimiz ham bo‘ldi. Harqalay niyatimiz yorug‘ligi sababmi, hammasi ortda qoldi. Bugun biz xohlaydigan jamiyat, davlat barpo etishda o‘z hissamni qo‘sha olyapman deb o‘ylayman, mana shu faxr hissi esa tinim bilmay ishlashimga yordam beradi.

Bilasizmi, tadbirkor bo‘lganimdan so‘ng orzularim ko‘lami ham kengaydi. Avval faqat oilam uchun yaxshi bo‘lsin degandim, endi shu yurtga qandaydir nafim tegishi kerak deb yuraman. Orzularim esa nihoyatda ko‘p.

Milliy o‘zlikni anglash to‘g‘risida ko‘p gapiriladi. Xo‘sh, milliy o‘zlikni anglash o‘zi nima? 500-1000 yil avval ota-bobolarimiz fanda, me’morchilikda erishgan yutuqlari bilan faxrlanish yo ular qurgan davlatlar ulug‘ligi bilan maqtanishmi? Boshimizdagi do‘ppi, egnimizdagi zarbof to‘nmi? Balki o‘xshashi yo‘q samimiyatimizdir. Ha, bular milliy o‘zlikning qirralari. Lekin milliy o‘zlikni anglash xatolardan voz kechish hamda tusmollab emas, aniq reja bilan oldinga harakatlanish, yaxshi niyat bilangina cheklanib qolmay, oqimga qo‘shilishga urinish ham, nazarimda.

Men mana shu yangi yilning nomiga mos bo‘lishimizni xohlayman. Xalqimiz tabiatni asrashni qadriyatga aylantirishini istayman. Tabiat, atrof-muhitga ko‘pincha bee’tibor, ba’zida o‘ta shafqatsiz munosabatda bo‘lamiz. Go‘yo mana shu zamindan boshqa zaxira uyimiz bordek bulg‘aymiz suvni, yerni, havoni, hayvonot va nabototni. Tabiatga isyon qilib, mukammal bo‘lmaymiz.

Men xalqimiz daromadga qarab buromadda bo‘lishini, doimiy jamg‘arma bilan yashashini orzu qilaman. To‘y, marosim, nisbiy afzallikda hech qachon o‘zini oqlamaydigan xarajatlardan o‘zini tiyishga o‘rganishini, buning uchun qarz-havola ko‘tarmasligini, o‘zini, farzandlarini jazolamasligini istayman.

Agar vijdonimizni uyg‘oq tutsak, ichki tartiblarga odatlansak, o‘zaro hurmat va madaniyatni bog‘cha, maktab, oliygoh, ish — har yerda o‘rnatsak, tartib ustuvor jamiyat qura olishimizga ishonaman, shunday bo‘lyapti ham.

Dilnavoz SAIDOVA,
“Ortiq-Dilnavoz” tikuvchilik korxonasi rahbari

MEHNATGA MEHNAT EMAS, BURCH DEB QARASH LOZIM

Buyurtmalar asosida deyarli hamma narsa tikamiz, barchasi qo‘limizdan keladi. Muhimi, ishimiz bor. Ish grafigi esa, aytsam ishonmaysiz, turmush tarzimizga moslangan — hamma sharoitiga qarab istalgan paytda kelib, xohlagan vaqtida ketadi, asosiysi, belgilangan topshiriq o‘z sanasida bajarilishi, liboslar bitishi lozim.

Deylik, kimdir tong sahar turib, sigir sog‘adi, non yopadi, erini ishga, bolalarini maktabga jo‘natadi, uyni saranjom-sarishta qilgunga qadar vaqt o‘tib ketadi. O‘sha ayol, misol uchun, soat o‘nda keladi, biroq hech kim nega kech kelding, nima qilding, demaydi. Men kabi yuzlab ayollar uchun korxona ikkinchi uyimizga aylanib qolgan.

Mahalla ayolining qo‘lida biror ish bo‘lishi bu — katta narsa, oylik olasiz, ro‘zg‘orning kam-ko‘stini to‘g‘rilaysiz. Faqat moddiy tarafdan emas, har kun uyg‘onganingizda bajaradigan yumushingiz bo‘ladi. Oilaviy janjal umuman yo‘q, qiziq tarafi janjal qilishga vaqt yo‘q. Erim ishda, men ishda, bolalar maktabdan chiqib, maxsus kurslarga, to‘garaklarga boradi. O‘zimni xuddi hech narsaga ulgurmayotgandek his qilsam-da, ba’zan bir nafas to‘xtab, ichki xotirjamlikka allaqachon erishganim uchun shukr qilaman.

Malohat RAVSHANOVA,
tikuvchi

“AYOLLAR DAFTARI”DAN TADBIRKORLIKKA QADAR

O‘tgan yil davomida Buxorodagi 544 ta mahallada aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish borasida ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, fuqarolar hamda haqiqatan ijtimoiy yordam olmayotgan kambag‘allarni aniqlash bo‘yicha xatlov amalga oshirilib, jami 50 ming 232 ta oiladagi 215 ming aholi ro‘yxati shakllantirildi. Shundan 1-2-toifadagi 23 ming 521 nafar yashash sharoiti yaxshilanayotgan oilalarga tez samara beradigan yo‘nalishlarni, ishga joylashtirish, kichik ishlab chiqarish uskunalari, xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida imtiyozli kredit, subsidiya resurslaridan foydalanib, daromadini oshirishga kirishildi.

Davlatimiz rahbari boshlab bergan tamoyil asosida Buxoroda sektor rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shahar va tumanlar hokimlari, iqtisodiy, ijtimoiy, qishloq va suv xo‘jaligi tizimidagi 1107 nafar mas’ulga 5434 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj kishi biriktirildi.

“Ayollar daftari”da turgan ayrim xotin-qizlarning bugungi g‘ayratini ko‘rib, ochig‘i, nega shu ayoldan ko‘proq ish qilmasligim kerak, degan o‘y harakatga undaydi. Bir zamonlar o‘zi uchun ish topolmay qiynalgan ushbu tadbirkor ayol bir necha yil ichida yuzlab xotin-qizga ish o‘rni yaratib berishini hatto o‘zimiz ham tasavvur qilmagandik. Chindan, bugun bahona qilishga aytarlik asos yo‘q. Imkoniyat har doim bo‘lgan va undan to‘g‘ri foydalana biladiganlar esa tumanning ilg‘or ishbilarmonlariga aylanmoqda.

Toshpo‘lat MARDONOV,
G‘ijduvon tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

QULAYLIKLAR YARATILSA, BARCHA SOHALAR GULLAB-YASHNAYDI

Tadbirkorlik — qariyb barcha sohalar lokomotivi, degan gapda hech bir mubolag‘a yo‘q. Aholini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish, yangi ish o‘rinlari yaratish masalalarida asosiy rol o‘ynayotgan ishbilarmonlik rivojlansa, shubhasiz, boshqa sohalar ham gullab-yashnaydi.

Kichik, mahalliy tadbirkorlik esa davlatning bozor va xo‘jalik yurituvchi tizimlarining hayotiy asosi bo‘lib xizmat qilib, bozor munosabatlarining asosiy shartlaridan — talab va taklifdagi manfaatlar muvozanatini inobatga oladigan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi birlamchi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyani o‘z ichiga oladi.

Bolaligimda sifatli, mazali shirinliklardan bahramand bo‘lish imkoniyati deyarli yo‘q edi. Kattaroq bayramlarda qand-qursni aytmasa, konfet deganini juda kam yer yedik. Nimagadir xotiramda bolalikdagi shunday holatlar qolib ketgan. Balki shu sababdir, tadbirkorlikka qo‘l urayotganimda shirinlik sohasini tanlashga qaror qildim. Hamma dastlab qanday qiyinchiliklarga uchragani xususida gapiradi, menda esa barchasi oson, rejadagidek kechgan. Boisi, tadbirkorlikka oid barcha qulayliklar, erkinliklar yaratilgan paytda korxona ochib, ish yurita boshladim. Ortiqcha muammolarga duch kelmadim, hammasi qonuniy, davlatning qo‘llovi bilan amalga oshirildi. Texnik tomondan ishning bu darajada sodda ko‘chgani shijoatimizga yanada shijoat qo‘shib yubordi. Shu taraflama o‘zimni, nokamtarlik bo‘lsa-da, eng qulay vaqtdagi omadli ishbilarmon deb bilaman.

Bugungi kunda “O‘ktamjon Miraziz shirinliklari” MCHJ korxonasida o‘ndan ortiq turdagi shirinliklar tayyorlanib, mahalliy bozorlarga chiqarilmoqda. Korxonamizning yillik ishlab chiqarish quvvati 13,9 million dollarni tashkil etadi. Ya’ni qattiq harakat qilsak, shu holatida shuncha daromadga chiqa oladi. Undan tashqari, yaqinda Turkiyaga borib, zamonaviy texnikalarni olib kelishni reja qilyapmiz. Tabiiyki, yana ishchilar olamiz. Eksport hajmini ko‘paytirish uchun harakat qilamiz. Ayni kunda eksport hajmi 20 foizni tashkil etadi. Korxonada 25 nafar ishchi faoliyat yuritadi.

Prezidentimiz, shu jumladan, biz ham mana shu sanoat zanjiri uzayishini istaymiz. Qilingan ishlardan ko‘ra bajarilishi zarur bo‘lgan maqsadlar, rejalar bisyor. Maqsadlar to‘g‘risida esa ular amalga oshganidan so‘ng aytish to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylayman.

O‘ktamjon SA’DULLAYEV,
“O‘ktamjon Miraziz shirinliklari” MCHJ korxonasi rahbari

AMALGA OSHISHI SHART BO‘LGAN ORZU

Davlatimiz rahbarining diqqat-e’tiborida nega aynan ishbilarmonlikni rivojlantirish turadi? Tadbirkorlik faoliyati aholining ish bilan ta’minlanishi, mehnat va iqtisodiy faolligining ortishi, natijada aholi daromadlari yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Bu jarayonning ikki oqibatiga e’tibor qaratish lozim: bir tomondan, aholining moddiy va ma’naviy zaruratlarining ortishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularni qondirish imkoniyatlarining paydo bo‘lishidir. Natijada ushbu jarayonlar aholi hayotini tubdan yaxshilash, turmush darajasini ko‘tarish, farovonligini oshirishni ta’minlaydi. Tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishi bilan uning mazkur sohadagi roli ko‘paya boradi.

Tadbirkorlarning ma’lum bir qismi oyoqqa turib, faoliyati yanada kengayishi sababli ular mulkdorga aylanadi. Bu hodisa jamiyatda yangicha dunyoqarashga ega, harakatchan avlodni, ya’ni tadbirkorlar, mulkdorlar toifasi paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday qatlam mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti asosi hamda ijtimoiy tayanchi hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkorlar doimo izlanishda, yurtimizdagi va xorijdagi hamkasblari, hamkorlar, shu bilan birga, turli soha vakillari bilan muloqotda bo‘ladi. Tajriba orttiradi va o‘zlarining kasbiy, madaniy-ma’naviy ko‘nikmalarini o‘stiradi. Qisqa qilib aytganda, inson qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga yaxshi imkoniyatlar yaratishda hamda rag‘batlantirishda tadbirkorlikning o‘rni beqiyos.

Shu sababdan tadbirkor bo‘lishga bel bog‘laganman. Mening faoliyatim umumjamiyatning ijtimoiy-madaniylashish jarayonini tezlashtirishiga ishonaman. Mahallamizda, umuman, barcha mahalla va qishloqlarda ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqa xizmat ko‘rsatish korxonalari bunyod etib, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish amalga oshirishim shart bo‘lgan orzularimdan biridir.

Ikki yil oldin besh kishi bilan boshlangan faoliyat bugun qirqdan ortiq ishchi o‘rni yaratdi, yillik ishlab chiqarish quvvatini 6 milliard, eksport hajmini esa 2 milliard so‘mga yetkazdi. Shu kunlarda “Demo Clean” korxonamizni kengaytirish uchun xorijdan zarur anjomlar xarid qildik, ishlab chiqarish jarayoni yanada osonlashdi. Har xil turdagi uy-ro‘zg‘or anjomlarini tozalovchi buyumlar hozirda kichik ishlab chiqarishdagi asosiy e’tibor qaratadigan mahsulotlarimiz hisoblanadi. Ayni paytda yana bir mahsulot — folga ishlab chiqarishni ham reja qilganmiz. Hozirgi faoliyatimiz kim uchundir maydadek ko‘rinar. Chindan kichik, biroq sifatli, yaqin kelajakda yaxshi natijalar berishiga shubha yo‘q.

Vohid OMONOV,
“Demo Clean” MCHJ korxonasi rahbari

* * *

G‘ijduvon tajribasi faqat shu tumanda emas, balki butun viloyat, mamlakat miqyosida keng tatbiq qilinmoqda. Ahamiyatli tomoni, endilikda hududlarda tashkil etilgan kichik sanoat zonalarida mahallalar drayveridan kelib chiqib, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilishi ham aholi bandligini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Mazkur tuman azaldan ishbilarmonlar maskani bo‘lib kelgan. Safar chog‘ida bunga ko‘p bora guvoh bo‘ldik. Avloddan avlodga ma’naviy meros bo‘lib o‘tayotgan gilamdo‘zlik, oshpazlik, hunarmandchilik, sozgarlik, kulolchilik kabi ajdodlar ruhi hamda iste’dodini o‘zida jo etgan kasblar bugungi Buxoroning qaynoq jarayonida yanada mukammallashib boraveradi. Ularning keyingi avlodlarga meros bo‘lib qolishida hozirgi ishbilarmonlar o‘z mehnatiga burch o‘laroq qaragani uchun ham bu makon gullab-yashnashda davom etaverishiga ishonamiz.

Qo‘sh sahifani
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Azizbek YUSUPOV tayyorladi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz

2024-yil Navoiy viloyati uchun sayyohlik sohasida yangi qirralar ochilgan yil sifatida tarixda qoladi. Chunki viloyat turizm salohiyatini yanada oshirish yo‘lida qator yirik loyihalar va tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun mo‘ljallangan infratuzilmalar yaratish, madaniy tadbirlarni kengaytirish, o‘qitish va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish hamda xalqaro darajadagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali viloyat nafaqat mamlakatda, balki dunyoda ham sayyohlik markazi sifatida tanildi.

Bir o‘lkaki...

NAVOIY “TURIZM HALQASI”

YURTIMIZ SAYYOHLIK BRENDI TANILISHIGA HISSA QO‘SHADI

O‘tgan yili Navoiy viloyatiga kelgan sayyohlar soni keskin oshgani turizm sohasidagi islohotlar va qo‘llangan samarali chora-tadbirlar natijasi sifatida baholanmoqda. Hududiy turizm boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, viloyatga 420,2 ming xorijlik va 2 million 485 ming mahalliy sayyoh kelgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 2,6 barobar oshgan.

Shuningdek, turizm xizmati eksporti qiymati 105 million dollarga yetgani viloyat iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo‘shilganini ko‘rsatadi. Bu natijalar nafaqat hududning ichki sayyohlik imkoniyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish, balki xorijlik sayyohlarni jalb etishdagi yangi marketing strategiyalari va infratuzilmaviy o‘zgarishlarning ijobiy ta’sirini ham aks ettiradi.

Betakror kayfiyat ulashuvchi xizmatlar

Viloyatda yangi turizm yo‘nalishlari va infratuzilmalar joriy etildi. Xatirchi, Nurota, Navbahor, Karmana va Qiziltepa tumanlarini qamrab olgan 340 kilometr masofada 60 obyektdan iborat 14 ta turizm yo‘nalishini o‘z ichiga olgan Navoiy “turizm halqasi” bo‘yicha alohida turistik marshrutlar ishlab chiqildi. Ayniqsa, “Qizilqum Safari”, “Yurt Camp” hamda “Kamel travel” MCHJlar barpo etgan sayyohlik klasterlari mahalliy va xorijlik sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu obyektlar sayyohlarga o‘tovda yashash, cho‘ldagi qo‘shimcha xizmatlardan foydalanish, ot yoki tuyada sayr qilish kabi noyob taassurotlarni taqdim etadi.

Navoiy shahrida “Shedevr Plaza” va “Tinchlik Plaza-2” mehmonxonalari faoliyat boshlashi natijasida 220 ta yangi mehmon o‘rni, 60 ta ish joyi ochildi. Shunday qilib 2024-yil holatiga ko‘ra, viloyatda joylashtirish vositalari soni 238 taga, umumiy o‘rinlar soni esa 6983 taga yetkazildi. Jumladan, 34 ta yangi joylashtirish vositasi (10 ta mehmonxona, 17 ta oilaviy mehmon uyi, 4 ta xostel va 3 ta o‘tovli oromgoh) tashkil etildi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti xodimlari tomonidan Navoiy viloyatining turistik imkoniyatlari va turizmning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish natijasida hududning 12 ta yangi imkoniyati aniqlandi. “Fotosafari” turistik dasturlarini ishlab chiqish, “Nurotaning qadimgi korizlari”dan turistik marshrutlarda foydalanish, “Sarmishsoy darasidagi hunarmandlar markazi”ni tashkil etish, “Sangijumon: abadiy tebranuvchi tosh yoxud Xatirchi ajoyibotlari” turistik dasturini ishlab chiqish, “Angidon: Xatirchidagi kichik Shveysariya” ekoturistik hududi infratuzilmasini tashkil etish kabilar shular jumlasidan.

Madaniy tadbir va festivallar

Viloyatda 2024-yilda qator madaniy tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, Nurota tumanida “So‘zana va kashta” milliy hunarmandlik festivali o‘tkazilib, unda 200 hunarmand ishtirok etdi. Tadbirga 150 ga yaqin xorijlik va 1000 nafar mahalliy sayyoh jalb etildi. Festival doirasida qo‘lda to‘qilgan gilamlar, hunarmandlik buyumlari va tasviriy san’at asarlari namoyish qilindi.

Shuningdek, Navoiy viloyati hududining turizm imkoniyatini namoyish etish maqsadida xalqaro miqyosdagi yarmarka va tadbirlarda ishtirok etdi. Jumladan, Moskvada o‘tkazilgan “MITT” xalqaro turizm yarmarkasida “O‘zbekiston” yagona milliy stendi bilan viloyat vakillari qatnashdi. “Ipak yo‘lida turizm” xalqaro sayyohlik yarmarkasida Navoiy viloyati hunarmandlari va tadbirkorlari ishtirok etib, qator xalqaro shartnomalar imzoladi.

Infratuzilma va zamonaviy texnologiyalar

Turizm infratuzilmasini yaxshilashga katta e’tibor qaratildi. 2024-yilda umumiy qiymati 33,5 milliard so‘mlik 6 ta qurilish va ta’mirlash ishi bajarildi. Natijada turistik obyektlarga olib boruvchi avtomobil yo‘li ta’mirlandi. Sayyohlik maskanlarida zamonaviy aloqa va internet xizmatini ta’minlash maqsadida 52 ta Wi-Fi nuqtasi o‘rnatildi. Bu ishlar natijasida turistlar soni ko‘payishi, xususan, viloyatdagi qadamjolar va madaniy meros obyektlariga qiziqish kuchayishi, turizmdan keladigan daromad oshishi, mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari ochilishi, turistik xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanishi va xalqaro miqyosda Navoiy viloyati brendi tanilishi imkoniyati yanada kengaymoqda.

Hududda qilingan infratuzilmaviy ishlar nafaqat turizm sohasida, balki umumiy rivojlanishda ham yangi bosqichni boshladi. Turistlar uchun qulay sharoit yaratish, turistik jozibadorlikni oshirishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlar Navoiy viloyatining mamlakat va xalqaro darajadagi turizm markazlaridan biriga aylantiradi.

Kadrlar tayyorlash va ta’lim

Navoiy viloyatida turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirish uchun qator seminar-treninglar o‘tkazildi. Jumladan, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professor-o‘qituvchilari tomonidan hududdagi turistik faoliyat subyektlari xodimlari, madaniy meros obyektlari xodimlari uchun 10 dan ortiq seminar-trening tashkil qilindi. Ularga Rossiyaning G.R.Derjavin nomidagi Tambov davlat universiteti professori, turizm va mehmondo‘stlik sohasida amaliy tajribaga ega xalqaro ekspert ham jalb qilindi. 2024-yil 28-30-iyun kunlari viloyat hududida faoliyat yurituvchi turoperatorlar, mehmonxona xodimlari hamda turistik qishloqlarda sayyohlik bilan shug‘ullanuvchilardan iborat 100 ga yaqin tinglovchi uchun uch kunlik o‘quv kursi tashkil etildi. Shuningdek, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda Navoiy viloyati turizm boshqarmasi hamkorligida hududda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasini e’lon qilish uchun xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Qolaversa, “Yoshlar turizmi: milliy madaniyat va etnosport” mavzusidagi yoshlar turizm festivali o‘tkazildi.

Xalqaro miqyosdagi targ‘ibot

Har bir hudud turizm imkoniyatlarini xalqaro darajada namoyon etish va rivojlantirish maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Navoiy viloyatida ham. Bu yo‘lda qator nufuzli xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Hamkorlik doirasida Osiyo va Yevropaning turizm sohasidagi yetakchi davlatlari, Arab va MDH mamlakatlari hamda Rossiyaning yirik turoperatorlari bilan memorandum va shartnomalar imzolandi.

Xalqaro hamkorlik doirasida viloyatga kelayotgan xorijlik turistlar soni ortishi, madaniy merosni xalqaro darajada tanitish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, turizm sohasida yangi ish o‘rinlari ochish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan ijobiy o‘zgarishlar kutilmoqda. Shu tarzda sayyohlik imkoniyatining xalqaro darajada targ‘ib qilinishi hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etmoqda.

Turistik kontentlar ko‘p

Prezidentimizning 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash doirasidagi vazifalar sohani yanada rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shdi. Xususan, Nurota, Xatirchi va Qiziltepa tumanlaridagi madaniy meros obyektlarining turistik kontentini shakllantirish va 13 ta tilda tayyorlash sayyohlar sonini sezilarli darajada ko‘paytirishga xizmat qilmoqda.

Shakllantirilgan kontent milliy merosga qiziqishni oshirish hamda yosh avlod o‘rtasida uning ahamiyatini targ‘ib qilishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Bu madaniy meros qadr-qimmatini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetib borishini ta’minlashga yordam beradi.

Nurota tumanining 21 ta, Xatirchi tumanining 10 ta va Qiziltepa tumanining 9 ta madaniy meros obyekti bo‘yicha tayyorlangan kontent yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratdi. Turistlar oqimi ortishi mehmonxonalar, restoranlar, transport va boshqa xizmatlar rivojlanishiga olib keladi.

Umuman olganda, Navoiy viloyati 2024-yilda turizm sohasida yangi bosqichga ko‘tarildi. Yangi turistik obyektlar va infratuzilmalar tashkil etilishi, xalqaro tadbirlarda faol ishtirok etish, madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali viloyat sayyohlar uchun yanada jozibador bo‘lib bormoqda. Bu yutuqlar hududni nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyoga tanitishda muhim qadamdir.

Muhiddin PO‘LATOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

QO‘LGA OLDIM SOZIMNI

Rubob yasash va chalish san’ati UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi

Oramizdagi odamlar

Buvayda tumani Yangiqo‘rg‘on qishlog‘ining “Jiydali” mahalla fuqarolar yig‘inidagi mo‘jazgina hovlining qiya ochiq darvozasidan hatlab, oddiy yog‘ochdan ajoyibot yasayotgan sozgarning sehrli olamiga nazar tashlaymiz. Xayolimizni ko‘hna navolar chulg‘aydi. Asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan kuy sehri dillarga ulug‘vorlik, ko‘tarinkilik olib kiradi. Betakror, benazir cholg‘ularga oshiqona boqamiz. Oddiy, go‘zal va nafis sozlar tayyorlab, ularga kuy sehrini jo aylayotgan ustalar mehnatiga tasanno aytamiz.

— Eshigimiz ochiq, kelaveringlar, — deya samimiy lutf bilan bizga peshvoz chiqdi uy sohibi. Sozgar usta Muhammadsodiq Mamadaliyev bilan tanishuvimiz shunday kechdi.

Usta ish ustida bo‘lsa-da, ustaxonadagi saranjom-sarishtalik e’tiborimizni tortdi. Bir-biriga uyg‘un holda tartib bilan joylangan xomashyolar, tayyor va yarim tayyor mahsulotlarning ko‘rinishi sozgar mehnati, mashaqqati, izlanishlarini ko‘rsatib turibdi. Har bir sozda o‘ziga xos ma’no va hayot hikmati mujassam. Aytishlaricha, bitta asl rubob tayyor holga kelgunicha yillab vaqt talab qilinar ekan.

Usta Muhammadsodiq umrguzaronlik qilayotgan orasta hovli san’at ahli va shinavandalar uchun begona emas. Bu yerda el sevgan hofiz Rasulqori Mamadaliyev yashab o‘tgan. Hovli sahniga o‘zgacha fayz berib turgan oddiy supa mashhur shoir va yozuvchilar, elning suyukli sozandayu xonandalari uchun ijod, bahs-munozara maydoni bo‘lib xizmat qilgan.

Bolaligidan so‘z va sozga oshufta bo‘lib ulg‘aygan sozgar hayot tarzida bu dilkash davralarning alohida o‘rni bor. U musiqa, soz va so‘z sehrini chin yurakdan his etgan holda ish tutishga harakat qiladi.

Maktabni tamomlab, Toshkent madaniy-oqartuv texnikumining xalq cholg‘u asboblari bo‘limida tahsil oldi. Shu yerda mashhur sozgar

Xoldorali Olimov ustaxonasida milliy rubob, tanbur, dutor, g‘ijjak yasash sirlarini o‘rgandi.

— Otam bizga kasb-hunarli bo‘lish orqali ro‘zg‘or tebratish, elga xizmat qilish, birovga yuk bo‘lmay, emin-erkin yashashni maslahat bergan, — deydi usta. — Bir muddat maktabda musiqadan dars berdim, so‘ng sartaroshga shogird tushib, shu sohada ishladim. Mana, chorak asrdirki, o‘g‘illarim va shogirdlarim bilan birga sozgarlik yo‘nalishida ishlab kelamiz. Dastlabki ishni hofiz va sozandalar talabi bilan rubob, tanbur, dutor singari milliy cholg‘ular tayyorlashdan boshlaganman. Mahsulotlarimizga talab ortib borgani bois, ustaxonani kengaytirishga harakat qildik. “Zamin asl navolari” oilaviy korxonasiga asos soldik. Mahsulotlarimizning asosiy xaridori madaniyat muassasalari, musiqa maktablaridir. Mehnat va izlanishlarimiz besamar ketmadi. 2021-yilda “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim.

Rubob Markaziy, Janubiy va Janubi-g‘arbiy Osiyodagi eng qadimgi musiqa asboblaridan. Uni tayyorlashda asosiy xomashyo tut va o‘rik daraxti, baliq terisi. Kuz va qish sozgarlar uchun xomashyo tayyorlash faslidir. Rubob uchun dastlab kosalar chopilib, quritish uchun maxsus joylarda saqlanadi. Xomashyo qanchalik quruq bo‘lsa, tayyor buyumning sifati shuncha yuqori bo‘ladi. Ehtiyotkorlik talab qiladigan yumushlarni bajarish uchun sozgardan sezgirlik, me’yorni aniq olish talab etiladi. Ozgina e’tiborsizlik, loqaydlik rubob sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonni ko‘ngildan his qilmay turib, soz yasash mushkul.

— Rubob yasash va chalish san’ati UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani sozgarlik borasida qadim an’analarni rivojlantirish, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish imkonini beradi, — deydi usta. — Bitta rubob tayyorlash uchun yillab vaqt sarflanadi. Unga mehr bermagan, soz sehrini yurakdan his qilmagan kishi yasagan cholg‘u muxlislar, sozanda, xonandalar qalbidan joy olmaydi. Rubobning beshta sim tolasini ushlab turgan dastak bir vaqtning o‘zida 5 tonna yukni o‘zida jamlay oladi. Bu bosim chalingan kuyga o‘zgacha ohang berib, yurakning tub-tubiga yetib borishiga xizmat qiladi. Shu bois, rubobdan taralgan kuy o‘ziga xos jarangi va ohanrabosi bilan har qanday musiqadan ajralib turadi.

Mohir usta tayyorlagan rubob va boshqa cholg‘ular kunchiqar va okeanorti mamlakatlarga qadar yetib borgan. Ayni kunda buyurtma asosida xorijga mahsulotlar yetkazib bermoqda.

Mo‘jaz ustaxonada “Navro‘z” nomli milliy musiqa anjomlarining yangi turlari yaratildi. Unda an’anaviy parda o‘rnida tutdan tayyorlangan taxtadan foydalanilyapti. Bu usul har qanday ob-havo sharoitida musiqa asboblaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Esini tanibdiki, oddiy yog‘ochga o‘ziga xos jilo, sayqal berish bilan shug‘ullanib kelayotgan usta ko‘plab yoshlarga kasb sirlarini o‘rgatmoqda. Bunda “ustoz-shogird” maktabi asosidagi amaliy ishlar, izlanishlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, milliy musiqa cholg‘ulari tayyorlashning benazir sir-sinoati o‘rgatiladi. Sozgar ustaxonasi yoshlar bilan gavjum, fayzli.

— Rubob yasash, chalish bir qaraganda oddiy ishdek ko‘rinadi. Ammo juda katta qunt, sabr-bardosh talab etadi, — deydi yosh sozgar Elyorjon Mamasiddiqov. — Har bir mahsulot tayyor holga kelguncha o‘nlab qo‘ldan qo‘lga o‘tadi. Ustalar mehr-muhabbati bilan o‘ziga xos jilva hamda ko‘rinish kasb etgan sozdan taralgan kuy dilga malham bo‘ladi, tinglovchi ruhi va ko‘nglini ko‘taradi. San’atkorlar oilasida ulg‘aygan bo‘lsam-da, sozgarlik hunarini egallashim birmuncha qiyin kechgan. Bu ishga hech kimni majburlab o‘rgatib bo‘lmaydi. U sinchkovlik, hozirjavoblik, tabiat va qalb go‘zalligini talab etadi. Men bilan hunar o‘rganishga kelgan tengqurlarim ko‘p bo‘lgan. Lekin hamma ham mashaqqatli mehnatning sinovlariga bardosh bera olmagan. Bu yerdagi qaynoq hayot, oddiy yog‘ochdan mo‘jiza yaratib, kuy bastalagan damlarimizda bor charchoqni unutamiz.

Farg‘ona shahridagi 3-bolalar musiqa maktabida ko‘hna san’at sirlarini yoshlarga o‘rgatib kelayotgan sozgar mehnat va izlanishdan to‘xtagani yo‘q. Bu yerda yaratilgan noyob va nodir musiqa anjomlari ohanrabosidan hayratlandik, sehrli qo‘llar yaratayotgan san’at asarlari bardavom ekaniga ishonch hosil qildik.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 129.
35033 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 20:55 Topshirildi — 23:25

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05